9. Farmonov, S., & Nazirov, A. (2023). C# DASTURLASH TILIDA GRAY KODI BILAN ISHLASH. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION (Т. 2, Выпуск 12, сс. 71–74). Zenodo.
10. Farmonov, S., & Toirov, S. (2023). NETDA DASTURLASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISH. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(22), 90-96
11. Raxmonjonovich, F. S. (2023). Array ma'lumotlar tizimini talabalarga o'qitishda Blockchain metodidan foydalanish. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 541-547.
12. Raxmonjonovich, F. S. (2023). Dasturlashda interfeyslardan foydalanishning ahamiyati. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 425-429.
13. Raxmonjonovich, F. S. (2023). Dasturlashda obyektga yo'naltirilgan dasturlashning ahamiyati. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 434-438.
14. Raxmonjonovich, F. S. (2023). Dasturlash tillarida fayllar bilan ishslash mavzusini Blended Learning metodi yordamida o'qitish. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 464-469.

15. Raxmonjonovich, F. S. (2023). DASTURLASHDA ISTISNOLARNING AHAMIYATI. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 475-481.
16. Raxmonjonovich, F. S. (2023). Dasturlashda abstraksiyaning o'rni. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 482-486.
17. Raxmonjonovich, F. S., & Ravshanbek o'g'li, A. A. (2023). Zamonaviy dasturlash tillarining qiyosiy tahlili. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 430-433.
18. Raxmonjonovich, F. S. (2023). C# dasturlash tilida fayl operatsiyalari qo'llashning qulayliklari haqida. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 439-446.
19. Raxmonjonovich, F. S. (2023). C# tilida ArrayList bilan ishlashning afzalliklari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 470-474.
20. Farmonov Sherzodbek Raxmonjonovich, & Rustamova Humoraxon Sultonbek qizi. (2024). C# DASTURLASH TILIDA TO'PLAMLAR BILAN ISHLASH. Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 11(10), 210–214. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/2480>.
21. Raxmonjonovich, F. S., & Ravshanbek o'g'li, A. A. (2023). Zamonaviy dasturlash tillarining qiyosiy tahlili. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 2(2), 430-433.

## ISLOM TARIXI: MOVAROUNNAHRDAGI TARAQQIYOT DAVRI



Andijon davlat pedagogika instituti  
Tarix fani o'qituvchisi **Keldiyeva Shaxnoza**  
Andijon davlat pedagogika instituti  
aniq fanlar fakulteti fizka yonalishi  
102 - gurux talabasi **Mamajonova Ozodaxon**

### Annotatsiya

Ushbu maqola Islom tarixi va Movarounnahr mintaqasidagi taraqqiyot davriga bag'ishlanadi. Maqolada Islomning Movarounnahrga kirib kelishi, uning madaniyat, siyosat va ilm-fan sohalariga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, islomning dastlabki tarqalishiga, musulmon hukmdorlarining siyosiy tuzilmalarga qanday ta'sir ko'rsatganiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Movarounnahrda islom madaniyatining rivojlanishi, ilm-fan va adabiyot sohasidagi yuksalishlar, shuningdek, arab islom imperiyasining ajralmas qismi sifatida regionning ahamiyati ko'rsatiladi. Maqola, Movarounnahrning Islom dunyosidagi o'rni va o'sha davrdagi siyosiy va madaniy hayotning rivojlanish jarayonini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Islom, Movarounnahr, tarix, madaniyat, ilm-fan, siyosat, musulmon hukmdorlar, adabiyot, islamiy dunyo, O'zbekiston, Xorazm, Samarqand, Buxoro, ilmiy taraqqiyot, madaniy yuksalish.

### Kirish

Islom tarixi insoniyat tarixida eng muhim davrlarni o'z ichiga oladi. Islomning tarqalishi nafaqat diniy, balki madaniy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda ham ulkan o'zgarishlarga olib keldi. Movarounnahr – hozirgi O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Qozog'istonning ayrim qismlarini o'z ichiga olgan hudud, Islomning tarqalishida katta ahamiyatga ega bo'lgan mintaqalardan biridir. Bu hududda islomning kirib kelishi, asosan, VII asrning ikkinchi yarmida, arablar tomonidan amalga oshirilgan istilo orqali boshlangan. Ushbu davrda Arab imperiyasi yuqori darajadagi madaniyat va ilm-fan bilan dunyoga tanildi. Arablar Movarounnahrga kirib kelgach, u yerda yangi siyosiy, diniy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi.

Movarounnahr o'zining geografik joylashuvi va iqtisodiy ahamiyati bilan tarixan juda muhim bir mintaqqa bo'lgan. Samarqand, Buxoro, Merv kabi shaharlari islomiy madaniyatning markazlariga aylangan. Bu hududda ilm-fan, adabiyot, falsafa, tibbiyot, matematika va boshqa sohalarda yirik yutuqlar qayd etilgan. Bu davrda Movarounnahrda ilmiy bilimlar va madaniy yuksalishning rivojlanishi, yangi ilmiy

ishlanmalar va adabiy asarlarning yaratilishi, shuningdek, falsafiy qarashlarning shakllanishi barcha Islom dunyosiga ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, Movarounnahrda musulmon hukmdorlari tomonidan amalga oshirilgan siyosiy islohotlar, iqtisodiy rivojlanish va madaniy boyliklar hududning o'ziga xos jihatlari sifatida ajralib turadi.

Islomning Movarounnahrdagi tarqalishi o'ziga xos jarayon bo'lib, nafaqat diniy ahamiyatga ega, balki bu jarayonning ijtimoiy va siyosiy tuzilmalarga, iqtisodiy hayotga va madaniy qadriyatlarga qanday ta'sir ko'rsatgani ham alohida o'rganish talab etadi. Movarounnahrda islomning kirib kelishi bilan birga, yangi siyosiy tuzilmalar shakllandı, iqtisodiy tarmoqlar o'zgarib, madaniy qadriyatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Hududda yuzaga kelgan ilmiy va madaniy taraqqiyot, nafaqat Islom dunyosining, balki dunyoning boshqa mintaqalariga ham katta ta'sir o'tkazdi.

Ushbu maqola Movarounnahrda islomning tarqalishi va uning siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va iqtisodiy hayotga bo'lgan ta'sirini o'rganishga bag'ishlanadi. Maqolada, islomning Movarounnahrga kirib kelishi, musulmon hukmdorlarining siyosiy faoliyati, madaniyat va ilm-fanning rivojlanishiga qanday turtki bo'lganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, Movarounnahrda Islomning jamiatning barcha jabhalariga qanday ta'sir ko'rsatganligi, hududning tarixiy rivojlanishida o'zgacha o'rinnegallaganligi ko'rsatiladi.

### Asosiy qism

#### Islomning Movarounnahrga kirib kelishi

Islomning Movarounnahrga kirib kelishi VII asrda, arablar tomonidan amalga oshirilgan istilo orqali boshlandi. 637 yilda, arablarning Muso ibn Nusayr boshchiligidagi qo'shnulari Fors imperiyasini zabit etganidan so'ng, Movarounnahrni zabit qilish uchun harakatlar boshlanadi. Bu jarayon davomida arablar janubdan va sharqdan kirib, Sirdaryo va Amudaryo bo'yalaridagi hududlarga qarshi harbiy yurishlar o'tkazdilar. 673-675 yillarda Buxoro va Samarqand atrofidagi hududlar arablar tomonidan egallandi va bu hududlarga Islom dini tarqalishi boshlandi.

Islomning tarqalishiga asosiy turtki bo'lgan omillardan biri, musulmonlarning nafaqat harbiy kuchi, balki diniy va madaniy jozibasi edi. Arablar o'z dini va madaniyatini taqdim etgan holda, ko'plab mahalliy aholini o'z tomonlariga tortishga muvaffaq bo'ldilar. Islom faqatgina yangi diniy qoidalar va amaliyotlarni emas, balki yangi siyosiy va ijtimoiy tuzilmani ham taklif qildi. Bu, o'z navbatida, Movarounnahrdagi mavjud hukmdorlik tizimi bilan raqobat qilishga olib keldi.

Movarounnahrga kirib kelishi jarayoni, faqat harbiy urushlar bilan chegaralanmay, balki diplomatik aloqalar, savdo va madaniyat orqali ham rivojlandi. Arablar Savdogarlar orqali o'z dinini va madaniyatini yoyishdi. Bu orqali Islomning tarqalishida tarmoqlangan savdo yo'llari va ko'plab madaniyatlarning bir-biriga ta'siri muhim ahamiyat kasb etdi. Samarqand, Buxoro va Merv kabi shaharlar esa Islomning

markazlariga aylanishdi. Bu shaharlarda ilm-fan, san'at, adabiyot va falsafa rivojlanib, Islomning ilmiy merosi shakllandi.

Musulmon hukmdorlarining o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun kiritgan siyosiy islohotlari ham Islomning tarqalishiga zamin yaratdi. Ko‘plab mahalliy xalqlar, musulmonlarning hukmronligini qabul qilishdi, chunki ular yangi siyosiy tizim va huquqiy tuzilmani o‘zlariga foydali deb hisoblashdi. Ayniqsa, arablarning kiritgan ijtimoiy tenglik, ozodlik vaadolat tamoyillari, o‘z navbatida, Movarounnahrdagi ayrim jamoalarga yaxshi ta’sir ko‘rsatdi.

Shunday qilib, Islom Movarounnahrda nafaqat diniy bir o‘zgarishlarni, balki yangi siyosiy va madaniy tuzilmalar va jamiyatning rivojlanishiga olib kelgan keng qamrovli jarayon sifatida shakllandi. Bu jarayon, o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo tarixiga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi va Islom dunyosining ajralmas qismiga aylanishiga sabab bo‘ldi.

### **Movarounnahrda islomiy madaniyatning shakllanishi**

Islomning Movarounnahrga kirib kelishi nafaqat diniy o‘zgarishlarni, balki hududning madaniy hayotida ham sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. VII asrda Islomning tarqalishi bilan birga, bu hududda yangi madaniy qadriyatlar, ilmiy yondashuvlar va estetik me’yorlar shakllandi. Arablar o‘z madaniyatini kiritish bilan birga, Movarounnahrning ko‘plab shaharlarida ilm-fan, adabiyot, san’at va arxitektura sohalarida rivojlanishlarni ko‘zlab, keng qamrovli madaniy muhitni yaratdilar.

Movarounnahrda islomiy madaniyatning shakllanishida samarqand, Buxoro, Merv kabi shaharlarning alohida o‘rni bor edi. Bu shaharlarda ilmiy markazlar, madrasalar va masjidlar barpo qilindi, bu esa ularning ilm-fan va madaniyatning rivojlanishida markaziy ro‘l o‘ynashiga sabab bo‘ldi. Samarqand va Buxoro o‘z davrining ilmiy markazlariga aylandi. Bu shaharlarda ilmiy asarlar yaratildi, Islom ilm-fanining rivojlanishida, ayniqsa, matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa va tarix sohalarida ko‘plab yirik yutuqlarga erishildi. Buxoroda Al-Buxoriy, Samarqandda esa Al-Kushiy va boshqa ko‘plab olimlar o‘z ilmiy ishlari bilan dunyoga mashhur bo‘ldi. Ularning asarlari Islomning ilmiy merosini yanada boyitib, Movarounnahrning madaniy yuksalishiga turtki berdi.

Madaniy rivojlanish faqat ilm-fan bilan cheklanib qolmadı. Islom madaniyatini tasviriy san’atda ham o‘ziga xos o‘zgarishlarni olib keldi. Arab san’ati va tasviriy san’at uslublari Movarounnahrga kirib kelib, mahalliy an’analarga moslashtirildi. Ko‘plab masjidlar, madrasalar, kutubxonalar va boshqa diniy arxitektura ob’ektlari qurildi. Islomning arab yozuvi va arab tilining rivojlanishi, shuningdek, Qur’on va hadislarning tarjimalari, ilmiy asarlar va adabiy xazinalarning to‘planganligi madaniy hayotning muhim jihatlaridan bo‘ldi.

Islom madaniyati Movarounnahrda yangi diniy me'yorlar, tasavvuf, adabiyot va san'at shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Tasavvufning rivojlanishi, shuningdek, har xil ma'rifatparvarlik maktablarining barpo bo'lishi, bu hududdagi islomiy madaniyatni yanada boyitdi. Adabiyotda esa yangi janrlar, masalan, kasida, gazal va ruboilar keng tarqaldi. Bu davrda yaratilan adabiy asarlar Islomning madaniy boyligini va insoniyat tarixidagi o'rni haqida chuqur tafakkur yuritishga imkon berdi.

Shunday qilib, Islomning Movarounnahrga kirib kelishi bilan bu hududda yangi madaniy qiyofa shakllandi. Islomiy madaniyatning rivojlanishi nafaqat diniy hayotni o'zgartirib, balki ilm-fan, san'at, arxitektura va adabiyotda yirik yutuqlarga olib keldi. Bu jarayon Movarounnahrni Islom dunyosining madaniy markazlaridan biriga aylantirdi.

### **Islomning siyosiy tuzilmalarga ta'siri**

Islomning Movarounnahrga kirib kelishi nafaqat diniy, balki siyosiy hayotda ham katta o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Arablarning istilosи va Islomning tarqalishi, mavjud siyosiy tuzilmalar va hokimiyat strukturalarini tubdan o'zgartirdi. Islomning siyosiy tuzilmaga ta'siri, avvalo, arablarning o'z hokimiyatini mustahkamlash, davlat boshqaruvi tizimini yangi prinsiplarga asoslashga qaratilgan siyosiy islohotlarida aks etdi.

Islomning siyosiy ta'siri birinchi navbatda amaldagi monarxik tuzilmalarga qarshi bo'ldi. Ularning o'rniga, xalifalik tizimi yaratildi, bu esa hokimiyatni oliy maqsadlar uchun xizmat qiladigan bir davlat boshqaruvi tizimiga aylantirdi. Islom, o'z navbatida, huquqiy tuzilmalarni takomillashtirishga, yangi qonunlar yaratishga va hokimiyatni qonuniylashtirishga yo'naltirilgan siyosiy va diniy tartiblarni taqdim etdi.

Xalqning hukmdorga bo'lган munosabatlari ham o'zgardi. Islom diniy huquq, shariat asosida hukmronlikni ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Islom hukumati, xususan, xalifalik tizimi barcha musulmonlar uchun bir xil huquq va majburiyatlarni taqdim etgan holda, har bir shaxsni o'zini adolatli ravishda boshqarish tizimiga kiritdi. Shariat qonunlari asosida hukm chiqarish, hukmdorlar tomonidan o'z xohishiga ko'ra siyosat yuritmaslik zaruriyati mavjud edi. Bu qonunlarning zamirida adolat, tenglik, rahm-shafqat va inson huquqlariga hurmat bilan bog'liq prinsiplarga asoslangan siyosat yotdi.

Movarounnahrda Islomning siyosiy tuzilmalarga ta'siri, shuningdek, mahalliy hukmdorlar va ularning boshqaruv tizimlari uchun yangi bir muvofiqlikni yaratdi. Avvalgi zodagonlarning hukmronligi hamda ijtimoiy ierarxiyaning mustahkamligi o'rniga, islomiy hukumat muayyan etnik va diniy guruhlarga bo'linishni inkor etib, barcha musulmonlarni birlashtirishga intildi. Arablar va mahalliy xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy tenglik, siyosiy muvozanatni saqlashga qaratilgan siyosatlar amalga oshirildi.

Xalqaro siyosatda ham Islomning ta'siri sezilarli bo'ldi. Arab xalifalari o'rtasidagi diplomatik aloqalar, savdo va madaniyatning o'sishi siyosiy barqarorlikka zamin yaratdi. Shu bilan birga, Islomning tarqalishi bilan birga, Movarounnahrdagi siyosiy tizimlar, markazlashgan hokimiyatlar va mustahkam davlat boshqaruvi tizimlariga aylanishi, ushbu hududdagi barcha siyosiy tizimlarni Islomning ta'limotlari asosida yangilanishga undadi.

Shunday qilib, Islomning siyosiy tuzilmalarga ta'siri Movarounnahrda yangi davlat boshqaruvi tizimlarining shakllanishiga olib keldi. Xalifalik tizimi, shariat qonunlarining tadbiqi va ijtimoiy tenglikning ta'minlanishi siyosiy hayotni yangi yo'nalishda rivojlantirishga turtki berdi. Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, Islomning Movarounnahrdagi ta'sirini mustahkamladi va u hududning siyosiy kelajagiga katta ta'sir ko'rsatdi.

### Movarounnahrdagi ilm-fan va madaniyat rivoji

Islomning Movarounnahrga kirib kelishi nafaqat diniy o'zgarishlarga, balki ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga ham katta turtki berdi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Merv, Nashshab va boshqa yirik shaharlar Islom dunyosining ilmiy markazlariga aylandi. Islom ilm-fani va madaniyati o'zining yangi yondashuvlari, ilmiy g'oyalari, va ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari bilan Movarounnahr hududida o'ziga xos uyg'unlikni yaratdi.

Ilm-fan sohasida, arablarning Movarounnahrga kirib kelishi bilan ilmiy faoliyat yangilandi. Arab olimlari ilm-fan, tibbiyat, astronomiya, matematika, geografiya, tarix va boshqa sohalarda yangi nazariyalar yaratishga kirishdilar. Shuningdek, ular eski yunon, hind va eroniy ilm-fanining merosini o'zlashtirib, uni rivojlantirdilar. Buxoro va Samarqandda joylashgan ilmiy markazlar, masalan, Buxoro madrasalari va Samarqanddagi Obadiya madrasasi ilmiy ishlar olib borishga, yangi ilmiy asarlarni yaratishga imkoniyat berdi. Bu shaharlar ilmiy faoliyatni amalga oshiruvchi markaz sifatida rivojlanib, dunyo miqyosida mashhur bo'ldi.

Islomiy ilm-fanning asosiy yo'nalishlaridan biri matematika va astronomiyadir. Al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Farobiy, al-Buxoriy kabi olimlar matematikadan to astronomiyagacha bo'lgan bir qancha yangi ilmiy ishlanmalar yaratdilar. Masalan, al-Xorazmiy o'zining "al-Jabr" asari bilan algebra fanini rivojlantirdi. Astronomiyada esa, Islom olimlari, masalan, Al-Battaniy, o'z asarlarida yerning harakati, yulduzlar va sayyoralar haqidagi ma'lumotlarni aniqlik bilan izohladilar.

Tibbiyat sohasida ham katta yutuqlar ro'y berdi. Abu Ali Ibn Sino (Avicenna)ning "Tibbiyat kanoni" asari Islom dunyosining ilm-fanidagi eng muhim yutuqlardan biri bo'lib, butun O'rta asrlar davomida tibbiyatning asosiy manbai bo'lgan. Uning ilmiy ishlari nafaqat Islom dunyosida, balki Yevropada ham o'qilgan va o'rgatilgan.

Islomiy madaniyatda adabiyot va san'at sohalari ham rivojlandi. Islomiy adabiyot, ayniqsa, fors va arab tilida yaratildi. O'rta asrlarda Movarounnahrda she'riyat va badiiy adabiyot gullab-yashnadi. Mashhur shoirlar, masalan, Alisher Navoiy va Abulqosim Firdavsi o'z asarlari bilan nafaqat Islom madaniyatini, balki jahon adabiyotini boyitdilar.

Islom madaniyatining boshqa bir muhim jihat — arxitektura va san'at sohasida yuzaga keldi. Islom arxitekturasi, ayniqsa masjidlar, madrasalar, maqbaralar va kutubxonalar barpo etishdagi yuksak san'at namunalarini namoyon etdi. Samarqand va Buxoroda qurilgan masjidlar va madrasa binolari o'zining nafislik va betakror shakllari bilan tanilgan.

Shunday qilib, Movarounnahrda Islom madaniyati va ilm-fanining rivojlanishi, bu hududni o'z davrining ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Islom olimlari va san'atchilari yaratgan ilmiy va madaniy meros bugungi kunda ham jahoning eng yirik madaniy boyliklaridan biri hisoblanadi.

### Xulosa

Maqlolada Islomning Movarounnahrga kirib kelishi, uning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotga ta'siri chuqur tahlil qilindi. Islomning tarqalishi bilan bu hududda yangi siyosiy tuzilmalar, ilm-fan, madaniyat va san'at rivojlandi. Islomning diniy, huquqiy va siyosiy asoslari nafaqat xalqaro aloqalarni mustahkamladi, balki ilmiy yutuqlarni ham kengaytirdi. Buxoro va Samarqand kabi shaharlar ilm-fan markazlariga aylandi, va Movarounnahr dunyo madaniyati va ilm-fanida o'ziga xos o'rinn egalladi. Islomning ta'siri bugungi kunda ham hududning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotida sezilarli. Shunday qilib, Islom Movarounnahrda barqaror rivojlanishning asosiy omili bo'lib, uning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan madaniy merosni yaratdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, I. (2007). *Islom Karimov: Tarixsiz kelajak yo'q*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
2. Shukurov, N. (2015). *Islom va uning Movarounnahrga ta'siri*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Sultonov, S. (2010). *Movarounnahr tarixida ilm-fan va madaniyat*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. G'afurov, F. (2007). *Buxoro xonligi va uning madaniyati*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
5. Izzatov, A. (2008). *Movarounnahr va uning islomiy madaniyati*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

## ЖИНОЙ ФАОЛИЯТДАН ОЛИНГАН ДАРОМАДЛАРНИ ЛЕГАЛЛАШТИРИШ

*Тоиров Отабек Гайрат ўғли*

Жиззах шахар ИИБ ҳузуридаги ТБ ходими

+99895-224-01-77

**Аннотация.** Ушбу мақолада жиной фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, унинг кўринишлари, турларига қаратилган ва ҳозирги кундаги жиноятларнинг кўринишини ифодалайди.

**Калит сўзлар.** Талон-торож қилиш, легаллаштириш, ўзлаштириш (растрата), ижтимоий хавфли қилмиш, мол-мулк ва ҳ.к.



Жиной фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш Евросиё гурухига аъзо давлатларнинг ўзаро баҳолашнинг 2-босқичини ўтказиш режасига мувофиқ 2019–2020 йилларда Ўзбекистоннинг ушбу йўналишдаги миллий тизимини ўзаро баҳолаш режалаштирилган. Ушбу босқичдан муваффақиятли ўтиш ва Жиной фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш бўйича молиявий чоралар ишлаб чиқувчи гурухнинг тавсиялари ижросини таъминлаш мақсадида ушбу соҳада фаолият юритувчи вазирлик ва идоралар иштирокида хавфларни миллий даражада баҳолаш ўтказилмоқда. Уларнинг мансабдор шахслари зиммасига ўз йўналиши бўйича шахсий жавобгарлик юкланди. Мисол учун, банклар кредит ташкилотлари ҳамда қимматбаҳо металлар ва тошлар билан боғлиқ операцияларни амалга оширувчи ташкилотлар бўйича Марказий банк раисининг ўринбосари жавобгар. Жами 6 та сектор бўлиб, масъул амалдорлар сони ҳам шунча. Ҳужжат билан ташкил этилган Комиссия хавфларни баҳолаш бўйича ишларни ташкил этиш, ушбу соҳадаги давлат сиёсатини такомиллаштириш бўйича таклифларни ишлаб чиқиш, тавсияларини ва мазкур соҳадаги халқаро

хужжатларни имплементация қилиш, шунингдек хуқуқни қўллаш амалиётини таҳлил қилиш ва хуқуқбузарликларни содир этиш сабабларини аниқлаш билан шуғулланади. Комиссиянинг ишчи органи – Бош прокуратура хузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти. Унга кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш фаолиятига жалб қилинган ташкилотларнинг (банклар, кредит, риэлторлик, лизинг ташкилотлари, адвокатура, нотариат ва х.к.) ходимларини ўқитиш ҳамда уларнинг малакасини ошириш чораларини кўриш вазифаси топширилди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023
2. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т. 17. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
3. Каримов И.А. Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т. 19. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Каримов И.А. Бизнинг ё‘лимиз демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом еттириш ё‘лидир. Т. 20. – Т.: Ўзбекистон, 2012.
5. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси (2018 йил 1 февралгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –.: «Адолат» Т., 2018.
6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси (2018 йил 1 февралгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –.: «Адолат» Т., 2018
7. Ички ишлар органлари тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Конуни 16.09.2016 йилдаги ЎРҚ-407-сон, кучга кириш санаси 18.03.2017 ..

## О'ЛЧАШЛАР НАТИЈАЛАРИНИ ТАҲЛИЛ QИЛИШ VA О'ЛЧАШЛАР НАТИЈАЛАРИНИНГ NOANIQLIGINI BAHOLASH

**Matyakubova Paraxat Mayliyevna**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti,  
Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va  
sertifikatlashtirish kafedrasi mudiri, Texnika fanlari doktori, professor  
E-mail: [P.matyakubova@tdtu.uz](mailto:P.matyakubova@tdtu.uz); Tel: +998712466211*

**Yaxshiyeva Nigina Akrom qizi**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti,  
1-kurs magistranti  
E-mail: [nnniginayaxhiyeva@gmail.uz](mailto:nnniginayaxhiyeva@gmail.uz); Tel: +998770059703*

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda o'lhash natijalarini aniqligi muhim rol o'ynaydi. Shu bois biz o'lhashlar natijalarining noaniqlik manbalarini baholab ularni bartaraf etish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. O'lhash noaniqligi o'lhash natijalari bilan bog`liq bo'lgan va o'lchanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo'shib yozilishi mumkin bo'lgan qiymatlar tarqoqligini (sochilishini) tavsiflovchi parametr hisoblanadi. Ushbu maqolada o'lhashlar noaniqligi, noaniqlik turlari, xatolik va noaniqlik manbalari, o'lhash noaniqliklarini baholash bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'lhashlar noaniqligi, standart noaniqlik, to'liq noaniqlik, xatolik, noaniqlik manbalari, noaniqliklar ta'siri, qamrov koefisienti, kuzatib borish, presizionlik.

**Аннотация.** В настоящее время точность результатов измерений играет важную роль. Поэтому проводится ряд работ по оценке источников неопределенности результатов измерений и их устранению. Неопределенность измерения — параметр, описывающий дисперсию (разброс) значений, связанных с результатами измерения и который может быть прибавлен к измеряемой величине при достаточном основании. В этой статье представлена информация о неопределенности измерений, типах неопределенности, источниках ошибок и неопределенности, а также оценке неопределенности измерений.

**Ключевые слова:** Неопределенность измерения, стандартная неопределенность, общая неопределенность, ошибка, источники неопределенности, влияние неопределенностей, коэффициент охвата, отслеживание, прецизионность.

**Annotation.** Nowadays, the accuracy of measurement results plays an important role. Therefore, a number of works are being carried out to evaluate the sources of uncertainty of the measurement results and eliminate them. Measurement uncertainty is a parameter describing the dispersion (scattering) of values associated with the measurement results and which can be added to the measured quantity with a sufficient basis. This article provides information on measurement uncertainty, types of uncertainty, sources of error and uncertainty, and assessment of measurement uncertainty.

**Key words:** Measurement uncertainty, standard uncertainty, total uncertainty, error, sources of uncertainty, impact of uncertainties, coverage coefficient, tracking, precision.

Har qanday fizikaviy kattalik o‘lchanganda, uning taxminiy qiymati aniqlanadi. Bu qiymatni esa tasodifiy kattalik deb hisoblash kerak va u ikki tashkil etuvchidan iborat bo‘ladi. Birinchi tashkil etuvchisi-takror o‘lhashlarda o‘zgarmaydigan yoki ma`lum qonun bo‘yicha o‘zgaradigan (ko‘payadigan yoki kamayuvchi) bo‘lib, uni muntazam (sistematik) xatolik deyiladi. Bu tashkil etuvchini – matematik kutilish deb yuritish mumkin. Ikkinci tashkil etuvchi esa, tasodifiy xatolik bo‘ladi.

**O‘lhashlar noaniqligi:** o‘lhash natijalari bilan bog`liq bo‘lgan va o‘lchanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo‘sib yozilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar tarqoqligini (sochilishini) tavsiflovchi parametr.

#### Izohlar

1. Parametr, masalan, standart og`ish (yoki unga karrali son) yoki ishonch intervali (oralig`i) kengligi bo‘lishi mumkin.

2. O‘lhash noaniqligi odatda ko‘plab tashkil etuvchilarni o‘z ichiga oladi. Bu tashkil etuvchilarning ba`zilari qator o‘lhashlar natijalarining statistik taqsimlanishidan baholanishi mumkin va eksperimental standart og`ishlar bilan tavsiflanishi mumkin. Standart og`ishlar bilan tavsiflanishi mumkin bo‘lgan boshqa tashkil etuvchilar ham tajribaga yoki boshqa axborotlarga asoslangan ehtimolliklarning taxmin qilingan taqsimlanishidan baholanadi.

3. O‘lhash natijasi o‘lchanayotgan kattalik qiymatining eng yaxshi bahosi bo‘lib hisoblanadi va tuzatishlar va taqqoslash etalonlari bilan bog`liq bo‘lgan, tartibli (sistematik) ta`sirlardan yuzaga keladigan tashkil etuvchilarni o‘z ichiga olgan holda noaniqlikning tashkil etuvchilari dispersiyaga hissa qo‘sadi.


**Standart noaniqlik:** standart og`ish sifatida ifoda etilgan o‘lhash natijasining noaniqligi.

A xil bo‘yicha (noaniqlikni) baholash: Qator kuzatuvlarni statistik tahlil qilish yo‘li bilan noaniqlikni baholash metodi.

B xil bo'yicha (noaniqlikni) baholash: Qator kuzatuvlarni statistik taxlil qilishdan farq qiluvchi usullar bilan noaniqlikni baholash metodi.

**To'liq noaniqlik:** Chegarasida o'lchanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo'shib yozilishi mumkin bo'lgan qiymatlar taqsimotining katta qismi joylashgan o'lhash natijasi atrofidagi oraliqni aniqlovchi kattalik.

### Xatolik va noaniqlik manbalari.



1-rasm. Xatolik va noaniqlik manbalari.

Taqsimotning bu qismiga qamrov ehtimoli yoki oraliq uchun ishonch darajasi sifatida qaralishi mumkin.

To'liq noaniqlik, shuningdek, umumiyoq noaniqlik deb ham atalishi mumkin.

**Qamrov koeffisienti:** To'liq noaniqlikka erishish uchun yakuniy standart noaniqlikning ko'paytiruvchisi sifatida foydalaniladigan son bilan ifodalangan koeffisient.

**Kuzatib borish:** Belgilangan noaniqliklarga ega bo'lgan solishtirishlar-ning ajralmas zanjiri vositasida muvofiq etalonlar, ko'pincha milliy va xalqaro etalonlar bilan aloqa o'rnatish imkoniyatidan iborat bo'lgan o'lhash natijalari yoki etalon qiymatlarining xossalari

**Presisionlik:** Sinovlarning kelishilgan sharoitlarda olingan mustaqil natijalarining bir biriga yaqinligi.

Izohlar

Presisionlik faqatgina tasodifiy xatoliklarning taqsimlanishiga bog'liq va o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy yoki qabul qilingan qiymatiga bog'liq emas.

Miqdoriy presizionlik ko‘pincha noaniqlik sifatida ifodalanadi va sinov natijalarining standart og`ishi ko‘rinishida hisoblanadi. Kamroq presizionlikka ko‘proq standart og`ish muvofiq keladi.

3. «Sinovlarning mustaqil natijalari» ifodasi, bu natijalar xuddi shu yoki aynan o‘xshash sinov ob`yektlaridan olingan qandaydir avvalgi natijalar ta`sir ko‘rsatmaydigan tarzda olinganligini bildiradi. Presizionlikning miqdoriy tavsiflari hal qiluvchi tarzda kelishilgan shartlarga bog`liq.

SI: Xalqaro birliklar tizimi

SO: Standart namuna

MVI: O‘lchashlarni bajarish metodikasi


Noaniqlik manbai
O‘lchash usuli
O‘lchash qurilmasi
O‘lchanayotgan obyekt
Atrof-muhit
Operator

## 2-rasm. Noaniqlaiklar ta’siri.

Metodlar yaroqliligini baholash.

Izoh – Bu yerda va bundan keyin metod (metodlar) deyilganda o‘lchashlarni bajarish metodikalari va sinovlar metodikalari tushuniladi.

Amaliyotda eskirgan o‘lchashlar uchun qo‘llaniladigan aniq maqsadning metodlarini ko‘proq ularning yaroqliligini baholash bo‘yicha tadqiqotlar jarayonida belgilanadi.



## 3-rasm. Xatolik haqida tushuncha.

Bunday tadqiqotlarning natijalari metodlarning umumiyligi tavsifnomalarini bo'yicha ham, unga ta'sir etuvchi alohida faktorlar bo'yicha ham axborot beradi va bu axborotdan noaniqlikni baholashda foydalanish mumkin.

Izoh – Metodlar yaroqlilagini baholash (validation of methods) chet elda qabul qilingan o'lchashlar sifatini ta'minlash tizimining muhim tashkil etuvchisi bo'lib hisoblanadi. «Validation» atamasi tegishli tushunchalarning turli mazmuni sababli milliy metrologiyada qabul qilingan «attestatlash» atamasi bilan teng ma'noga ega emas. Qonuniy metrologiya prosedurasi sifatida amalga oshiriladigan metodikalarni attestatlash metodikaning unga qo'yilgan metrologik talablarga muvofiqligini o'rnatishni maqsad qilib qo'yadi. Bunda diqqat markazida olingan natijalar xatoliklarining tavsifnomalari bo'ladi. Metodning yaroqlilagini baholash odatda samaradorlikning qator ko'rsatkich-larini belgilashdan (topish va aniqlash chegarasi, selektivlik/spesifiklik, yaqinlashish va qayta ishlab chiqarish, barqarorlik va boshqalar) va ular asosida aniq o'lchash masalasini yechish uchun metodning yaroqlilagini muhokama qilishdan iborat bo'ladi. Yaroqlilikni baholash bo'yicha tadqiqotlar natijalaridan noaniqlikni (xatolik tavsifnomalarini) topishda foydalanish mumkin.

Metodning yaroqlilagini baholash bo'yicha tadqiqotlar samaradorlikning umumiy ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadiga egadir. Ularni metodni ishlab chiqish va uning laboratoriyalararo tadqiqoti jarayonida yoki ichki laboratoriya tadqiqoti dasturiga rioya etgan holda belgilaydilar. Xatolikning yoki noaniqlikning alohida manbalari odatda presizionlikning umumiyligi tavsiflari bilan solishtirilganda ahamiyatliroq bo'lganidagina ko'rib chiqiladi. Bunda tirkak tahlil natijalariga tegishli tuzatishlarni kiritishdan ko'ra, muhim samaralarning aniqlanishi va yo'qotilishiga qilinadi. Bu potensial muhim ta'sir o'tkazuvchi faktorlar umumiyligi presizionlik bilan solishtirilganda ahamiyatlilikka belgilanganda, tekshirilganda bu faktorlarga e'toborsizlik bilan qarash holatiga olib keladi. Bu sharoitlarda tadqiqotchilar ko'pchilik tartibli samaralarning ahamiyatsizligi isboti va qolgan ahamiyatli samaralarning ba'zi baholanishlari bilan bir qatorda umumiyligi samaradorlik ko'rsatkichlariga erishadilar.

### O'lchash noaniqliagini baholash.

Umuman olganda noaniqliklarni baholash oddiy bo'lib hisoblanadi. Qandaydir o'lchash natijasiga xos bo'lgan noaniqlikni baholash uchun quyidagi amallarni bajarish zarur.

1-bosqich. O'lchanayotgan kattalikni tasvirlash.

O'lchash kattaligi va u bilan bog'liq bo'lgan parametrlar o'rtasidagi nisbatni kiritgan holda aynan nima o'lchanayotganligini aniq ifodalash zarur (masalan, o'lchash kattaliklari, konstantalar, darajalash uchun etalonlar qiymatlari va boshqalar). Mumkin bo'lgan joyda ma'lum sistematik effektlarga tuzatishlar kiritiladi. Bunday tasviriy

axborot odatda muvofiq hujjatda metodikaga yoki metodning boshqa tasvirida keltiriladi.

2-bosqich. Noaniqlik manbalarini aniqlash.

Noaniqlik manbalarining ro‘yxati tuziladi. U 1 bosqichda belgilangan xuddi o‘sha nisbatda parametrlar noaniqligiga hissa qo‘shadigan manbalarni o‘z ichiga oladi, lekin noaniqlikning boshqa manbalarini, masalan, ximiyaviy taxminlardan kelib chiqadigan manbalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

3-bosqich. Noaniqliknin tashkil etuvchilarning miqdoriy tasvirlanishi.

Har bir aniqlangan potensial manbaga xos bo‘lgan noaniqlik qiymati aniqlanadi va baholanadi. Ko‘pincha noaniqlikning bir qancha manbalar bilan bog`liq bo‘lgan yagona hissasini baholash yoki aniqlash mumkin. Shuningdek mavjud ma`lumotlar noaniqlikning barcha manbalarini yetarli darajada hisobga olayotganligini ko‘rib chiqish muhim va noaniqlikning barcha manbalarining adekvat hisobga olinishini ta`minlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha eksperimentlar va tadqiqotlarni puxta rejalashtirish zarur.

4-bosqich. Yakuniy noaniqliknin hisoblash.

3-bosqichda olingan axborot umumiyligi noaniqlikka bo‘lgan yoki alohida manbalar bilan yoki bir qancha manbalarning yakuniy effektlari (samaralari) bilan bog`liq bo‘lgan bir qancha mikdoriy tasvirlangan xossalardan iboratdir. Bu xossalarni standart og`ishlar ko‘rinishida ifodalash va mavjud qoidalarga muvofiq yakuniy standart noaniqliknin olish uchun ularni jamlash zarur. Kengaytirilgan noaniqliknin olish uchun tegishli qamrov koeffisientidan foydalanish zarur.

### Noaniqlik manbalarining namoyon bo‘lishi.

Eng avvalo, noaniqlikning mumkin bo‘lgan manbalari ro‘yxatini tuzish zarur. Bu bosqichda mikdoriy aspektlarni hisobga olishga zarurat yo‘q; faqatgina aynan ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan narsaga nisbatan to‘liq aniqliknin ta`minlash maqsad bo‘lib hisoblanadi.

Noaniqlik manbalarining ro‘yxatini tuzishda odatda oralik kattaliklardan natijalarni hisoblash uchun foydalaniladigan asosiy ifodalardan boshlash qulaydir. Bu ifodadagi barcha parametrlar o‘z noaniqliklariga ega bo‘lishlari mumkin va shuning uchun ular noaniqlikning potensial manbalarini bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, aniq ko‘rinishda o‘lchanayotgan kattalik qiymatini topish uchun foydalaniladigan ifodaga kirmaydigan, lekin shunga karamay natijaga (masalan, ekstraksiya vakti yoki temperatura) ta`sir qiladigan boshqa parametrlar ham bo‘lishi mumkin. Noaniqlikning yashirin manbalari ham bo‘lishi mumkin. Bu barcha manbalar ro‘yxatga kiritilishi lozim.

Noaniqlik manbalari ro‘yxati tuzilgandan so‘ng ularning natijaga ta`sirini asosan xar bir ta`sir ba`zi bir parametrlar bilan bog`liq bo‘lgan o‘lchashlarning rasmiy modeli

deb yoki tenglamada o‘zgaruvchan deb tasvirlash mumkin. Bunday tenglama natijaga ta`sir etuvchi individual omillar atamalarida ifodalangan o‘lhash jarayonining to‘liq modelini tashkil etadi. Bu funksiya juda murakkab bo‘lishi mumkin va uni ko‘pincha aniq ko‘rinishda yozish mumkin emas. Biroq, u mumkin bo‘lgan joyda bunday ifodalanish shakli umumiy holda noaniqlikning individual tashkil etuvchilarini jamlash usulini aniqlaganligi sababli uni bajarish zarur.

Noaniqlikning muvofiq bahosini olish uchun ulardan har birini alohida baholash mumkin bo‘lganda o‘lhash metodikasini operasiyalarning muntazamligi ko‘rinishida ko‘rib chiqish (ba`zida ayrim operasiyalar deb ataladigan) foydali bo‘lishi mumkin. Bu ayniqsa o‘lhashlarning bir xildagi metodikalari bitta ayrim operasiyalarni o‘z ichiga olganda foydali yondashuv bo‘ladi. Har bir operasiyaning alohida noaniqliklari u holda umumiy noaniqlikka hissa qo‘sadi.

Amaliyotda tahliliy o‘lhashlarda ko‘proq odatiy bo‘lib kuzatilayotgan presizionlik va solishtiruvning mos keluvchi namunalariga nisbatan siljish kabi metodning umumiy effektivligi elementlari hisoblanadi. Bu tashkil etuvchilar odatda noaniqlik bahosiga ortiqroq hissa qo‘sadi va natijaga ta`sir etuvchi alohida effektlar ko‘rinishida yaxshiroq tuziladi. Bunday holda boshqa mumkin bo‘lgan hissalarni faqatgina ularni ahamiyatlilagini tekshirish uchun, ulardan faqatgina ahamiyatlilarini miqdoriy aniqlab baholash lozim,

Noaniqlikning tipik manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

Namuna tanlash;

Laboratoriyada yoki bevosa tahlil ob`yektida bajariladigan namuna tanlash;

Operasiyalari taxliliy metodika qismi bo‘lgan hollarda namunalar o‘rtasidagi tasodifiy farqlar va namuna tanlash;

Prosedurasida siljish (sistematik xatolikning) yuzaga kelishi uchun har qanday imkoniyatlar kabi effektlar so‘nggi natija noaniqligining tashkil etuvchilarini shakllantiradi.

### **Namunalarni saqlash shartlari.**

O‘lchanayotgan (sinalayotgan) namunalar o‘lhashlar bajarilgunga qadar qandaydir vaqt davomida saqlansa, saqlash shartlari natijaga ta`sir etishi mumkin. Shuning uchun, saqlash davomiyligi, shuningdek saqlash shartlari noaniqlik manbalari sifatida ko‘rilishi lozim.

### **Apparatura effektlari.**

Bunday effektlar, masalan, analitik tarozilar aniqlik chegaralarini; ro‘yxatga olinganlaridan farq qiluvchi (berilgan chegaralarda) o‘rtacha temperaturani ushlab turaoladigan temperatura rostlagichining mavjudligini; ortiqcha yuklash effektlariga duchor qilinishi mumkin bo‘lgan avtomatik analizatorni o‘z ichiga olishi mumkin.

## Reaktivlar tozaligi.

Hattoki boshlang`ich reaktiv tekshirilgan bo`lsa ham bu tekshiruv metodikasi bilan bog`liq bo`lgan qandaydir noaniqlik qolganligi sababli titrlash uchun eritma konsentrasiyasi absolyut aniqlikda belgilanishi mumkin emas. Ko`p reaktivlar, masalan, organik bo`yoqlar 100 % ga toza bo`lib hisoblanmaydi va tarkibida izomerlar va anorganik tuzlar bo`lishi mumkin. Bunday moddalar tozaligi tayyorlovchi tomonidan kamida o`shanday darajada ko`rsatiladi. Tozalik darajasiga tegishli bo`lgan har qanday taxminlar noaniqlik elementini kiritadi.

## Taxmin qilingan stexiometriya.

Tahliliy jarayon aniqlangan stexiometriyaga bo`ysunadi deb taxmin qilingan hollarda kutilayotgan stexiometriyadan og`ishlarni yoki reaksiyaning to`liq emasligini yoki yordamchi reaksiyalarni hisobga olish zarur bo`lishi mumkin.

## O`lchashlar shartlari.

O`lchovli shisha idish, masalan, u kalibrangan temperaturadan farq qiluvchi temperaturada qo`llanilishi mumkin. Katta temperatura effektlari tuzatishlar kiritish bilan hisobga olinishi lozim, biroq bu holda ham suyuqlik va shisha temperaturasi qiymatlaridagi har qanday noaniqlik ko`rib chiqilishi lozim. Shunga o`xhash, agar qo`llanilayotgan materiallar namlikning mumkin bo`lgan o`zgarishlariga sezuvchan bo`lsa atrofdagi havoning namligi ahamiyatga eta bo`lishi mumkin.

## Namunaning ta`siri.

Murakkab matrisa tarkibi aniqlanayotgan komponentning chiqarib olinishiga yoki asbobning javobiga ta`sir ko`rsatishi mumkin. Aniqlanayotgan komponentni topish shakliga sezuvchanlik bu ta`sirni yanada kuchaytirish mumkin.

Namuna yoki aniqlanayotgan komponent barqarorligi tahlil jarayonida issiqlik rejimining yoki fotolitik effektning o`zgarishi sababli o`zgarishi mumkin.

Chiqarib olish darajasini baholash uchun ba`zi «mashhur qo`shimcha» ishlatilganda aniqlanayotgan komponentning namunadan aniq chiqishi qo`shimchani chiqarib olish darasidan farq qilishi mumkin, bu esa baholash lozim bo`lgan qo`shimcha noaniqlikni kiritadi.

## Hisoblash effektlari.

Darajalash vaqtida mos kelmaydigan modelni tanlash, masalan, nochiziq javobda chiziqli darajalashdan foydalanish juda yomon moslashtirishga va ko`proq noaniqlikka olib keladi.

Raqamlarni olib tashlash va yaxlitlash oxirgi natijaning noto`g`riligiga olib kelishi mumkin. Modomiki bu vaziyatlarni oldindan aytish qiyin ekan ba`zi bir noaniqlikka joizlik to`g`ri deb topilishi mumkin.

## Bo'sh namunaga tuzatish.

Bo'sh namunaga tuzatish qiymatining ba`zi bir noaniqligi bu tuzatishning zarurligiga shubha bilan barobar o'ringa ega bo'ladi. Bu ayniqsa izlarni tahlil qilishda muhimdir.

## Operatorning ta`siri.

O'lhash asboblarining pasaytirilgan yoki ko'tarilgan ko'rsatkichlarini ro'yxatga olish mumkinligi.

Metodika interpretasiyasida ahamiyatga ega bo'lmagan farqlarning mumkinligi.

## Tasodifiy effektlar.

Tasodifiy effektlar barcha aniqlashlarda noaniqliklarga hissa qo'shadi. Bu bandni o'z-o'zidan ma'lum narsa sifatida noaniqlik manbalari ro'yxatiga kiritish lozim.

## Standart namunalar noaniqligi.

Ko'pchilik SN lar uchun, ayniqsa laboratoriyalararo eksperiment metodi bilan attestatlanayotgan SN lar uchun metrologik tavsifnomada sifatida xatolik tushunchasidan ko'ra noaniqlik tushunchasidan foydalanish mantiqiyroqdir. Shu sababli SN ishlab chiquvchilar, ayniqsa G'arbiy Yevropa mamlakatlarining SN ishlab chiquvchilari SN ga sertifikatda ko'rsatilganidek ularning attestatlan-gan qiymatlarini belgilash noaniqligi tavsifnomalarini keltiradilar.

SN ning attestatlangan qiymatlarining noaniqligi quyidagi tarzda ifodalanishi mumkin:

Sertifikatda «kengaytirilgan» yoki «jamlangan» sifatlarsiz noaniqlik belgilangan. Masalan, «MVN Analytical Ltl» (Angliya) firmasi chiqargan O'z DSN 03.0305:2004 SN «Noaniqlik» tavsifnomasiga ega.

Sertifikatda qandaydir (R) ishonchli ehtimolligida va (K) qamrov koeffisientida kengaytirilgan noaniqlik belgilangan. Masalan, «Raragon Scientific Ltd» (Angliya) firmasi chiqargan O'z DSN 03.0241:2004 SN «R=95% ishonchli ehtimolligida va K=2 qamrov koeffisientida (U) kengaytirilgan noaniqliq tavsifnomasiga ega.

Sertifikatda qandaydir (R) ishonchli ehtimolligida qamrov koeffisientini ko'rsatmasdan kengaytirilgan noaniqlik belgilangan. Masalan, «Petrolet Analyzer Corporation Gmbn» (Germaniya) firmasining SN «(S(p)) o'rtacha kvadrat og'ishga ega bo'lgan metodika bo'yicha (R) ishonchli ehtimolligi laboratoriylar (n) ishtiroyida olingan o'rtacha qiymatning kengaytirilgan noaniqligi»(1).

$$U = (t \cdot S_{(P)}) / \sqrt{n} \quad (1)$$

Xatolik va noaniqlik tavsifnomalarining to'g'ridan-to'g'ri taqqoslanishi to'g'ri emas, shuning uchun qoidaga ko'ra bu metrologik asboblarning statistik baholari taqqoslanadi.

Agar standart yoki yakuniy noaniqlik berilgan bo'lsa, u holda ularning baholariga o'rtacha kvadratik og'ishlar mos bo'ladi (2):

$$\begin{aligned}\sigma(A) &= u(A), \\ \text{yoki} \\ \sigma(A) &= u_c(A),\end{aligned}\tag{2}$$

bu yerda  $u(A)$  va  $u_c(A)$  – SN ning attestatlangan qiymatini belgilashning mos standart va yakuniy noaniqligi;

$A$  – SN ning attestatlangan qiymati;

$\sigma(A)$  – SN ning attestatlangan qiymatining o'rtacha kvadratik og'ishi.

Agar (R) ishonchli ehtimolligi va (k) qamrov koeffisientida kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo'lsa yoki ( $U_p$ ) ishonchli ehtimolliligin ko'rsatish bilan va ( $k_p$ ) ishonchli ehtimolliligin ko'rsatib qamrov koeffisientini ko'rsatish bilan kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo'lsa, u holda uning bahosiga o'rtacha kvadratik og'ish mos bo'ladi (3):

$$\begin{aligned}\sigma(A) &= U(A)/k, \\ \text{yoki} \\ \sigma(A) &= U_p(A)/k_p,\end{aligned}\tag{3}$$

bu yerda  $U(A)$  va  $U_p(A)$  – SN ning attestatlangan qiymatini belgilashning muvofiq kengaytirilgan va belgilangan ishonchli ehtimolligi bilan kengaytirilgan noaniqlik.

Agar qandaydir (R) ishonchli ehtimolligida qamrov koeffisientini ko'rsatmasdan kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo'lsa va bunda yoki laboratoriylar, standart namunalarning metrologik tafsifnomalarini baholash bo'yicha laboratoriylararo eksperiment qatnashchilari soni yoki erkinlik darajasining muvofiq soni bilan ( $t$ -kriteriy) St'yudent kriteriysi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda uning bahosiga o'rtacha kvadratik og'ish mos keladi(4):

$$\sigma(A) = [U(A)\sqrt{n}] / t\tag{4}$$

Noaniqliknin o'rtacha kvadratik og'ish ko'rinishida ifodalangandan so'ng SN tanlash xuddi o'lhash vositalari (SN) xatoligi teng ehtimolliklar qonuni bo'yicha taqsimlanganidek o'lhash vositalari uchun amalga oshirilganidek aniqlik bo'yicha amalga oshiriladi.

**Foydalaniman adabiyotlar ro‘yhati:**

1. P.M.Matyaqubova, Sh.M.Masharipov, X.Sh.Jabborov. “Fan va texnikada o‘lchashlar noaniqligi”, o‘quv qo‘llanma, Toshkent-2021
2. A.A.Abduraxmanov. “Fan va texnikada o‘lchashlar noaniqligi”, Darslik, Jizzax-2022
3. F.M.Israilov. “O‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrash”. Darslik, Jizzax-2022
4. N.R.Yusupbekov. “Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish”. Darslik .1997-y.
5. Alijonov Xabibullo Avazbek o‘g‘li, “Termoplast avtomat moshinalarni tayyor maxsulotni olish jarayonini avtomatlashtirish”, INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION, ISSN 2171-381X .2023
6. U.A.Shoazimova. “Metrologiya va standartlashtirish”. Darslik.Toshkent.2019-y.
7. U.A.Maxmonov, A.M.Tursunov, Sh.Sh.Mirzaxodjayev. “Metrologiya va nazorat o‘lchov asboblari fanidan o‘quv qo‘llanma”.Toshkent.2013-y.
8. P.I.Kalandarov, G.I.I. “Metrologiya asoslari”. Darslik, Toshkent-2024
9. O‘zDST 8.010.4.
10. Ilmiybaza.uz

## EXCEL DASTURI BILAN ISHLASH MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РАБОТЫ С ПРОГРАММОЙ EXCEL  
TEACHING METHODOLOGY FOR WORKING WITH EXCEL

*Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna*

*Farg'ona davlat universitetini dotsenti, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

*Soliyev Zohidjon Soyibjon o'g'li*

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Anonatsiya:** Mazkur maqola Excel dasturini o'rgatish metodikasiga bag'ishlangan. Dastur, uning imkoniyatlari va foydalari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Maqolada Excelni o'rgatishning bosqichma-bosqich metodikasi, o'qitishda duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni hal etish usullari, yangi texnologiyalar va onlayn resurslar orqali o'qitish jarayonini yanada samarali qilish yo'llari muhokama qilinadi. Excelni o'rganishning ahamiyati, talabalar uchun bu ko'nikma qanday foyda keltirishi va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida qanday yordam berishi haqida fikr yuritiladi. Maqolada, shuningdek, Excelni o'rgatish jarayonida o'qituvchilarga tavsiyalar beriladi va yangi texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati ta'kidlanadi.

**Аннотация:** Данная статья посвящена методике преподавания работы с программой Excel. В статье подробно рассматриваются возможности и преимущества программы. Описываются поэтапные методики обучения Excel, трудности, с которыми сталкиваются преподаватели и студенты, а также способы их преодоления. Также обсуждаются новые технологии и онлайн-ресурсы, которые могут сделать процесс обучения более эффективным. В статье рассматривается важность изучения Excel, как этот навык может быть полезен для студентов и как это повлияет на их будущую профессиональную деятельность. Преподавателям даются рекомендации по улучшению методики обучения и внедрению новых технологий.

**Abstract:** This article is dedicated to the methodology of teaching Excel. It provides detailed information about the program, its capabilities, and benefits. The article discusses the step-by-step methodology for teaching Excel, challenges faced in teaching, and methods to overcome these challenges. It also examines how new technologies and online resources can make the teaching process more effective. The importance of learning Excel, how this skill benefits students, and how it aids their future careers are also discussed. Additionally, the article provides recommendations for educators on improving teaching methods and integrating new technologies.

**Kalit so‘zlar:** Excel, ofis dasturlari, o‘qitish metodikasi, grafikalar, pivot jadvallari, formulalar, amaliy mashg‘ulotlar, yangi texnologiyalar, onlayn resurslar, interaktiv treninglar, statistik tahlil, ma'lumotlar tahlili, o‘qituvchilar, talaba ko‘nikmalar, video darslar, Excelni o‘rganish.

**Ключевые слова:** Excel, офисные программы, методика преподавания, графики, сводные таблицы, формулы, практические занятия, новые технологии, онлайн-ресурсы, интерактивные тренинги, статистический анализ, анализ данных, преподаватели, навыки студентов, видеоуроки, изучение Excel.

**Keywords:** Excel, office programs, teaching methodology, graphics, pivot tables, formulas, practical exercises, new technologies, online resources, interactive training, statistical analysis, data analysis, educators, student skills, video lessons, learning Excel.

## Kirish

**Asosiy qism:** Bolalarda gastrit kasalligi kam uchraydi, lekin ba'zan turli sabablarga ko'ra rivojlanishi mumkin. Gastrit – bu me'da shilliq qavatining yallig'lanishi bo'lib, bolalarda ham o'tkir, ham surunkali shaklda uchrashi mumkin.

Gastrit turlari:

Yuzaki: faqat shilliq qavatning yallig'lanishi.

Eroziv: shilliq qavatdagi eroziyalar.

Atrofik: shilliq qavatning kichrayishi.

Flegmonoz: me'daning barcha qavatlarining yallig'lanishi, ko'pincha yara yoki saraton tufayli.

O'tkir gastrit ko'pincha Helicobacter pylori bakteriyasi keltirib chiqaradigan me'da ichki pardasining yallig'lanishi tufayli rivojlanadi. O'tkir gastrit sabablari:

Oziq-ovqat toksik infeksiyalari (salmonellez).

Ortiqcha ovqatlanish.

Spiriti ichimliklarni suiiste'mol qilish va chekish.

Shilliq pardanining dorilar (analgetiklar, sitostatiklar) bilan ta'sirlanishi.

Oziq-ovqat allergiyasi.

Stresslar, toliqish, surunkali uyqusizlik.

Surunkali gastrit ko'pincha quyidagilar tufayli paydo bo'ladi:

O'tkir gastritni yetarli darajada davolamaslik.  
Uzoq vaqt davomida ovqatlanish tartibining buzilishi.  
O'tkir va dag'al ovqatlarni suiiste'mol qilish.  
Ovqatni yomon chaynash.  
Irsiy moyillik.  
Bolalarda gastrit belgilari:  
Qorin og'rig'i (ko'pincha yuqori yoki kindik atrofi).  
Ko'ngil aynishi va qayt qilish.  
Oshqozonda og'irlik va shish.  
Qirqish va nordon ta'mli qusish.  
Oshqozon yonishi.  
Ishtahaning pasayishi.  
Ba'zan bola charchoq va holsizlikdan shikoyat qiladi

Bolalarda gastritni tashxislash:

1. Anamnez yig'ish: Bola va ota-onadan shikoyatlar haqida ma'lumot olish.
2. Fizik tekshiruv: Qorinni paypaslab ko'rish.
3. Laborator va instrumental tekshiruvlar:

Helicobacter pylori uchun qon, nafas yoki najas tahlili.  
Oshqozon ultratovush tekshiruvi.

Zarur hollarda endoskopiya.

Diagnostika

Biopsiya

Oshqozonni UZI qilish

Qorin bo'shlig'i rentgeni

Umumiyl qon tekshiruvi

Gastritni tashxislash uchun gastroenterolog shifokor quyidagilarni buyurishi mumkin:

Oshqozonning ultratovush tekshiruvi.

Ezofagogastroduodenoskopiya (gastroskop yordamida oshqozonni tekshirish).

Me'da shilliq qavatining biopsiyasi.

Oshqozon sekretsiyasini tekshirish.

Qonning klinik tahlili.

Qorin bo'shlig'i rentgenografiyasi.

To'liq tashxisni zamonaviy gastroenterologiya markazida o'tkazish mumkin.

Xavf: Gastritning zo'rayishini o'z vaqtida davolamaslik kasallikning surunkali shakliga va quyidagi asoratlarga olib kelishi mumkin:

Me'dadan qon ketishi.

Me'da yarasi.

Gastritda yoqimsiz his — jig'ildon qaynashi — birinchi navbatda, oshqozonichak trakti bo'limining biron qismida kislota-ishqor muvozanati buzilishi natijasi sanaladi. Bundan tashqari, oshqozonning alohida qismlarida kislota muvozanatining me'yordan chetlashishi — past yoki yuqori nordonlik kuzatiladigan gastrit patogenezining asosida yotadi. Oshqozonda ovqat hazm qilinishi — organizmning nozik sozlangan biokimyoviy jarayoni hisoblanadi. Bu oshqozon shirasining normada nordon pH muhiti (uning asosiy komponenti xlorid kislotasi) bilan tasdiqlanadi, shuningdek, uning turli qismlarida nordonlik ko'rsatkichlarining farq qilishi bilan ham. Yuqori nordonlik (pH 1,0-1,2) oshqozonning boshlang'ich qismida kuzatiladi, past nordonlik (pH 5,0-6,0) esa oshqozonning ingichka ichak bilan ulangan joyida. O'n ikki barmoqli ichakda esa pH ishqoriy muhitga ega.

**Davolash.** Gastritni davolash Medikamentoz(dorilar) davolash tahrir

Surunkali gastrit bilan og'rigan bemorlarda etiologik davolash sifatida H. pylori infeksiyasi uchun ijobiy test natija berganda eradikatsiya terapiyasi o'tkaziladi[4].

Atrofik gastrit bilan og'rigan bemorlarda atrofiya rivojlanishining oldini olish uchun ham eradikatsiya terapiyasini o'tkaziladi[4][5].

Eroziv gastrit bilan og'rigan bemorlarda, shu jumladan nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilarni qabul qilish tufayli paydo bo'lgan, eroziyalarni davolashga erishish uchun proton pompasi ingibitirleri yoki rebamipid bilan terapiya o'tkaziladi.

Gastritni davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Maxsus parhezga rioya qilish.

Oshqozonda kislotalikni normallashtirish uchun preparatlar.

Me'da shilliq qavatini tiklash uchun vositalar.

Antibakterial terapiya.Parhez

Gastritda №1 parhez quyidagilarni istisno qiladi:

Non.

Sho'rvalar.

Makkajo'xori va shaftoli yormasi, dukkaklilar.

Yog'li baliq va go'sht navlari.

Konservalar.

Nordon sut mahsulotlari.

Gazlangan ichimliklar, choy, qahva, alkogol.

Shokolad va muzqaymoq

**Xulosa.** Bolalarda gastrit kasalligi o‘z vaqtida tashxis qo‘yilib, davolansa, ko‘pincha asoratlarsiz o‘tadi. Ota-onalar bolaning ovqatlanishi, ruhiy holati va sog‘ligiga e’tibor berishlari muhim. Agar belgilari kuzatilsa, shifokorga murojaat qilish kerak.

### Foydalaniłgan adabiyotlar.

1.Малая медицинская энциклопедия, под ред. В. И. Покровского, М.: Советская энциклопедия, 1991. ISBN 5-85270-040-1. Arxivnaya kopiya ot 6 dekabrya 2009 na Wayback Machine (Data обрашениya: 29 maya 2011)

2.Belousov A. S., Vodolagin V. D., Jakov V.P. Diagnostika, differensialnaya diagnostika i lechenie bolezney organov r̄iževareniya / M.: „Meditina“, 2002. 424 s. ISBN 5-225-04504-9.

3. O‘zbekiston tibbiyoti bo‘yicha darsliklar

“Bolalar gastroenterologiyasi” – T. Zokirov, T. Bobomurodov.

## BOLALARDA UCHRAYDIGAN OQ QON KASALLIGI VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Kuryazova Sh.M., Oxunova M.J., Habibulloev M.A.

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot instituti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalarda ko‘p uchraydigan qon kasaligi (leykemiya) bolalarda tez - tez uchraydigan qon kasalliklar, klinik manzarasi va davolash usullari bayon etilgan .

**Kalit so'zlar:** Bolalarda qon kasalligi, Oq qon hujayralari, O'tkir limfoblastik leykoz (ALL), O'tkir miyeloblastik leykoz (AML), Leykoz sabablari, Leykoz belgilari,

Bolalarda leykoz rivojlanishi, Qon kasalliklari sabablari, Genetik omillar, Radiatsiya ta'siri, Viruslar va leykoz, Kimyoviy moddalar ta'siri, Leykozning turlari, Leykoz davolash usullari, Kimyoterapiya bolalarda, Immun tizimi va qon kasalliklari, Suyak iligi transplantatsiyasi, Bolalarda qon ketish, Infeksiya va immunitet.

**Kirish:** qon ishlab chiqaradigan to‘qimalarning o‘sma kasalligi, bunda ko‘mik zararlanadi va normal qon hosil bo‘lishi jarayoni buziladi; qon yaratuvchi a’zolarda yosh patologik hujayra elementlari o‘sib ketadi, limfa tugunlari va taloq, kattalashadi, qonda o‘ziga xos o‘zgarish sodir bo‘ladi.

**Asosiy qism: Leykoz**— Kasallik sababi to‘liq aniqlanmagan. Leykozning kelib chiqishida virusli, endogen, kimyoviy va radiatsion nazariyalar mavjud. Qon yaratuvchi a’zolarda yosh patologik hujayralar elementlari shiddatli ravishda o‘sib ketadi, limfa tugunlari va taloq, kattalashadi, qonda o‘ziga xos o‘zgarish sodir bo‘lad. O’tkir leykozda intoksikatsiyaga xos jarayon bo‘lib, asosan, temperaturasi ko‘tariladi, og‘iz bo‘shlig‘i va tomoqda yiringli-yarali oqarish jarayonlar, qonsirash kuzatiladi, asab sistemasi ham izdan chiqishi mumkin. Periferik qondagi anemiya, trombotsitopeniya, leykogramma o‘zgarishi, qon yaratilish jarayoninig to‘satdan to‘xtab qolishi va boshqalar kuzatiladi. Surunkali leykoz dastlab jarayolarida sezilmasligi mumkin. Quvvatsizlik holatlari, bosh aylanishi, ko‘p terlashlar, haroratning biroz ko‘tarilishi ro‘y beradi. Bemorning suyaklarida zirqirab og‘rish, me’da-ichak faoliyatining buzilishi; jigar, taloq va limfa tugunlari kattalashadi. Og‘irroq (terminal) hollarda anemiya, trombotsitopeniya avj olishi mumkun. Oqqon kasalligi turlixil sabablar natijasida yuzaga kelishi mumkin bulgan masalan, genetik moyillikdan bulishi mumkin bu holatda bemorning oila a’zolaridan oqqon yoki boshqa qon kasalliklari bo’lgan bulsa, bolada bu kasallikning xavfi oshadi.

Endilikda radiatsiya ta'sirida yuzaga kelishi mumkun, yuqori darajali radiatsiyaga uchraganda oqqonning rivojlanishiga sabab buladi misol qilib aytganda, kimyoviy moddalarga, yoki elektr stansiyalari yaqinida yashaydiganlarda bulishi mumkin. Virus va infeksiyalar sababli ham buladi, ba'zi viruslar ( misol Epstein- Barr virusi ) hujayraning genetik tuzilishini buzishi mumkin va oqqon rivojlanishiga olib kelishi mumkin buladi.

Bolalarda uchraydigan oqqonda o'tkir limfoblastik leykemiya bu bolalarda eng kupa uchraydigan turi bulib, limfotsitlarning normal rivojlanishini to'xtatadi.

### Oqqon kasalligi belgilari: Charchoq va zaiflik

Domiy tarzda charchoq hissi, ayniqsa, uning kuchayib borayotgani kasallikning ilk alomati bo'lishi mumkin. Bu alomat ko'pinchi vaqtarda saraton kasalligining belgilari bo'lishi sanaladi. Charchoq darajasi yengil boshlanib, keyinchalik chidab bo'lmaydigan darajaga o'tadi.

Nafas qisishi bulishi Vaqtি-vaqt bilan og'ir qiyin nafas olish, nafas olayotganda siqilish. Oqqonda kechadigan kamqonlik holati nafas qisilishiga olib kelishi mumkin, chunki o'pka yetaricha kislorod olmaydi va shuning natijasida yaxshi ishlamaydi.

Ko'karishlar bulishi: Oqqon kasalligida qonda trombotsitlar soni keskin kamayadi. Shuningdek, qon ivishi bilan bog'liq muammolar tanada ko'karishlar paydo bo'lishiga olib keladi. Inson hech qanday jarohat olmagan bo'lsa-da, qo'l va oyoq qismlarida ko'karishlar paydo bulishni boshlaydi. Bu esa xavfli alomatlar hisoblanadi.

Qon ketishi holatlari: Burun va milkning qonashi qonda trombotsitlar yetishmovchiligi natijasida qon quyuqlashishi muammolari namoyon bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida oqqon kasalligining jiddiy alomatini ko'rsatgan bo'ladi bunda. limfa tugunlarining kattalashishi; jigar, taloqning kattalashishi bilan kuzatilishi mumkin.

**Davolash:** Surunkali leykemiyada shifokor qo'llab-quvvatlovchi taktikani tanlaydi, uning maqsadi asoratlar rivojlanishini kechiktirish yoki oldini olishdir. O'tkir leykemiyada shoshilinch terapiya talab qilinadi, bu yuqori dozalarda kimyoterapevtik vositalarni qabul qilishni o'z ichiga oladi. Kimyoterapiya organizmga oq qon hujayralaridan tozalanishga imkon beradi. Shundan so'ng, agar talab etilsa, sog'lom donorlik suyak iligi hujayralarini transplantatsiyasi buyuriladi.

Sitostatiklar — bu atipik hujayralar o'sishini bostiruvchi dorilar. Ular vena ichiga yoki tabletka shaklida og'iz orqali yuboriladi. Kasallikning turli varianti o'ziga xos davolanish rejimini talab qiladi. Juhon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga ko'ra, har bir mutaxassis turli xil terapiya rejimlariga amal qilishi mumkin. Leykemianing aniq varianti aniqlangach (hujayra tarkibini hisobga olgan holda), bemorga zarur sxema bo'yicha bir necha kurslarda kimyoterapiya buyuriladi:

Birinchi kurs zararli hujayralarni yo'q qilishga qaratilgan. Uning davomiyligi individual ravishda belgilanadi va bir necha oyni tashkil etishi mumkin.

Birinchi kurs muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng, qo'llab-quvvatlovchi terapiya buyuriladi — bemorga sitostatiklar oldingi dozalar va miqdorda beriladi.

Oxirgi bosqich — bu profilaktika kursi. U olingan terapevtik ta'sirni kuchaytiradi va bemorga remissiyada uzoqroq bo'lishga imkon beradi. Barcha kimyoterapiya kursi tugagach, ushbu kasallik bilan boshqa duch kelmaslik ehtimoli yuqori bo'ladi.

Biroq, tibbiyot hali yetaricha rivojlanmagan va organizm o'zini oldindan aytib bo'lmaydigan darajada tutishi mumkin. Shunday qilib, to'liq davolanishdan keyin kasallik qaytalanishi ehtimoli ham yo'q emas. Bunday holda, davolanishning yana bir varianti — suyak iligi transplantatsiyasi taklif etiladi.

**Xulosa:** Oq qon kasalligi bolalar uchun jiddiy tahdid bo'lishi mumkin, ammo zamonaviy tibbiyot yordamida kasallikni aniqlash va davolashda katta yutuqlar mavjud. Kasallikning oldini olish uchun genetik maslahatlar va muhim ekologik omillarni hisobga olish kerak.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "Bolalar onkologiyasi va gematologiyasi"
- 2."Onkologiya va gematologiya bo'yicha qo'llanma" (tahrir: M. X. Muhammadiev)
3. "Pediatriya" darsligi

## BOLALARDA O'TKIR VA SURUNKALI BRONXITNI DAVOLASH USULLARI

Kuryazova Sh.M., Oxunova M.J., Hamdamjonov I.X.

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot instituti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalarda ko‘p uchraydigan nafas sistemasida uchraydigan o’tkir va surunkali bronxitni kelib chiqishi, klinik manzarasi va davolash usullari bayon etilgan .

**Kalit so’zlar:** Bronchitis acuta (ўткир бронхит), Bronchitis chronica (сурункали бронхит) , Inflammatio viae respiratoriae (нафас йўлларининг яллиғланиши) , Tussis (йўтал) , Sputum (балғам) , Febris (иситма) , Virus infectiosus (вирусли инфекция) , Allergia (аллергия) , Asthma (астма) , Aer contaminatus (ифлос ҳаво) , Cura (даволаш) , Medicamenta anti-inflammatoryia (яллиғланишга қарши дорилар) , Prophylaxis (профилактика) , Immunitas (иммунитет)

**Kirish:** O‘pka embriologiyasi homilaning 4-haftasida boshlanadi. Dastlab o‘pka o‘pkacha chiqindisidan rivojlanib, bronxial daraxtni shakllantiradi. 5-17-haftalarda bronxlar ko‘p marta tarmoqlanadi. 24-haftadan tug‘ilgunga qadar alveolalar shakllanadi va kapillyarlar hosil bo‘lib, gaz almashinuv uchun tayyor bo‘ladi. Tug‘ilgandan keyin ham alveolalar rivojlanishi davom eetadi.

**Asosiy qism:** Bronxit — o‘pkada bronxlar (katta va o‘rta kattalikdagi havo yo‘llari) yallig‘lanishi. Bu yo‘talni keltirib chiqaradi. Bronxit odatda burun, qulqoq, tomoq yoki sinuslarda infeksiya sifatida boshlanadi. Keyin infeksiya bronxga tushadi. Alomatlar orasida yo‘tal, balg‘am, xirillash, nafas qisilishi va ko‘krak og‘rig‘i mavjud. Bronxit o‘tkir yoki surunkali bo‘lishi mumkin. Bolalardagi bronxit – bu bronxalarga ta’sir qiladigan nafas yo’llarining yallig‘lanish kasalligi.Bu bolalarda, ayniqsa sovuq mavsumda eng ko‘p uchraydigan kasalliklardan biridir.Bronxit ham o’tkir, ham surunkali turga ega bo‘lishi mumkin va asoratlarni oldini olish uchun simptomlarni o‘z vaqtida aniqlash va davolanishni boshlash. O‘tkir shakldagi bronxit birdan paydo bo‘ladi, shiddat bilan davom etadi va to‘g’ri davolash qo‘llanganda o‘rtacha 7-10 kun davom etadi. Undan keyin bronxial devorlarning shikastlangan hujayralari tiklana boshlaydi (regeneratsiya), virusli va / yoki bakterial yallig‘lanishidan so’ng to’liq sog’ayish 3 haftadan keyin kuzatiladi.

Bronxitning o‘tkir obstruktiv shakli-havo yo’llarining torligi va balg‘amning oz miqdori bilan bronxospazmga moyilligini hisobga olgan holda, maktabgacha yoshdagil bolalar uchun ushbu shakl ayniqsa xavflidir. Yallig‘lanish jarayoni, asosan, yiringli yoki kataral-yiringli tabiatan bo‘ladi, o‘rta va kichik kalibrli bronxlarni o‘z ichiga

oladi, bronxlar ekssudat bilan tiqilib? Yopilib qoladi. Mushak devorlari refleksiv tarzda qisqaradi va bu spazmga olib keladi. Tanada kislorod ochligiga olib keladigan nafas olish yetishmovchiligi paydo bo'ladi.

O'tkir noobstruktiv shakli- o'tkir noobstruktiv(obstruktiv emas) yoki oddiy shakldagi bronxit va katta va o'rta kalibrdagi bronxial naychalarda kataral yallig'lanish jarayonining rivojlanishi va yallig'lanish tarkibidagi bronxial to'siqning yo'qligi bilan ajralib turadi. Ushbu shaklning eng keng tarqalgan sababi virusli infeksiya va noinfektsion moddalardir.

Kasallik muvofiq davolash bilan rivojlanishda davom etar ekan, balg'am bronxlarni yo'talish jarayonida tark etadi, nafas olish etishmovchiligi rivojlanmaydi.

Bolalarda o'tkir bronxit davosi – etiotrop

Virus sababli kelib chiqqan bronxit odatda – etiotrop davolanmaydi. Ammo, gripp virusi qo'zg'atgan bronxit arbidol, relenza yok tamiflyu kabi preparatlardan foydalansa bo'ladi. O'RFVI infeksiyasi rinovirus, adenovirus, paragripp virusi) chaqirgan bronxit etiotrop davosi mavjud emas, shu sababli kasallik ko'pincha simptomatik davolanadi. Ba'zi hollarda shifokor tomonidan – immun tizimi ishini kuchaytiruvchi vositalar buyurilishi mumkin. Ammo, bu kabi preparatlar qat'iy ravishda shifokor tomonidan buyuriladi, chunki bu vositalarning nojo'ya ta'sirlari ham bor.

Allergik bronxitning etiologik davosi – bronxitga sabab bo'layotgan allergenni organizmga ta'sirini cheklashdan iborat, masalan chang, hayvon yungi, o'simliklar, hasharotlar zahri, kimyoviy moddalar va boshqalar.

Bronxitning simptomatik davosi- bolalarda o'tkir bronxit davosida avvalo shilliq qavatlar yallig'lanishi va yo'talni bartaraf etishi kerak. Shuni ham unutmaslik zarur – yo'tal organizmning himoya mexanizmi hisoblanadi, yo'tal orqali organizm yot jismlardan xalos bo'lishga harakat qiladi (virus, bakteriya, allergen yoki toksik modda bo'lishidan qat'iy nazar). Shu sababli shilliq qavatlarda ko'plab shilliq ishlab chiqariladi va bu balg'am ko'rinishida organizmdan chiqarilib yuboriladi. Yagona muammo shu balg'amning juda yopishqoqligi va ko'chishi qiyinligida, ayniqsa, kichik yoshdagи bolalar o'pkasi va bronxlari kuchsiz bo'lganligi sababli yo'tal bilan balg'amni ajrata olmaydilar.

Balg'am ko'chishini osonlashtirish uchun mukolitiklar va balg'am ko'chiruvchi preparatlardan foydalilaniladi. Mukolitik vositalar (ASS, Ambrogeksal, Bromgeksin) balg'amni yumshatadi va ko'chishini osonlashtiradi. Balg'am ko'chiruvchi preparatlar (Askoril, Gerbion, Gedeliks, Prospan, Doktor Mom) yo'tal vaqtida balg'amning nafas yo'llaridan ko'chishini osonlashtiradi. Bu kabi preparatlarning ko'pchiligi dorivor o'simliklar asosida tayyorланади.

Nomedikamentoz davo-bolalarda bronxitni faqatgina dori preparatlari yordamida davolash mumkin deb o'ylasangiz adashasiz. Kasallikni butunlay asoratlarsiz davolash uchun bir qator chora tadbirlarga rioya etish zarur.

Birinchi navbatda suyuqlik ichishni ko'paytirish kerak – odatdagi hajmdan 2 marotaba ko'proq suyuqlik ichish tavsiya etiladi, chunki tana harorati ko'tarilganda organizm suvsizlanadi. Bundan tashqari, suyuqliklar organizmdan toksinlar chiqib ketishini ta'minlaydi.

### Bolada bronxitning sabablari

Bolalarda bronxitning asosiy sabablari virusli infektsiyalar (90% hollarda), bakterial infektsiyalar, allergiya va bezovtalanish xususiyati beruvchi moddalar (tamaki tutuni, ifloslangan havo). Immunitetning zaiflashishi, nafas olish yo'llari infektsiyalari va surunkali kasalliklar ham bronxitga yordam beradi.

### Kasallikning surunkali shakli

Surunkali shaklda bronxlar devoridagi yallig'lanish jarayonining alomatlari uch ot yoki undan ko'p vaqt davomida kuzatiladi. Surunkali bronxitning asosiy alomati — odatda ertalab, uyqudan keyin samarasiz, yengillik bermaydigan yo'tal. Jismoniy mashqlar bajarish natijasida kuchayadigan hansirash ham kuzatilishi mumkin.

Yallig'lanish surunkali bo'lib, kuchayish va remissiya (chechinish) davrlar bilan kechadi. Ko'pincha surunkali shaklning sababi doimo tajovuzkor omillarining ta'sir qilishini o'z ichiga oladi: kasb-hunar xavf-xatarlari (tutun, bug'lar, gaz, kimyoviy bug'lanish). Eng keng tarqalgan qo'zg'atuvchi — faol yoki passiv chekish bilan ta'sir qiluvchi tamaki tutunidir.

Surunkali shakl kattalar uchun xosdir. Bolalarda u faqat immunitet tanqisligi, pastki nafas olish tizimining tuzilishidagi anomaliyalar, og'ir surunkali kasalliklar mavjud bo'lqanda rivojlanishi mumkin

**Bronxitning belgilari va belgilari:** Kattalardagi bronxit ikki xil bo'ladi: o'tkir va surunkali, katalal va yiringli, obstruktiv va obstruktiv bo'limgan. Kasallikning barcha shakkllarini bitta asosiy simptom - yo'tal bilan birlashtiradi. Dastlabki 2-3 kun ichida u intruziv, quruq yoki ozgina balg'am bilan. Bir necha kundan keyin bronxit belgilari o'zgara boshlaydi. Balg'amning ajralishi yanada kuchliroq. Samarali yo'tal - bu jarayonning aniqroq ta'rifi. Balg'am asosan oq-kulrang va tiniq rangga ega, ammo bakterial infektsiya qo'shilsa, sarg'ish-yashil bo'lishi mumkin. Kattalardagi bronxitning belgilari quyidagicha: tananing umumiy intoksikatsiyasi (zaiflik, uyquchanlik, ishtahani yo'qotish); past harorat ( $37-38^{\circ}\text{S}$ ); ko'krak og'rig'i.

## Davolash

Obstruktiv bronxitni davolash bemorning davolash jarayonida faol ishtirokida bo'lishi kerak. Iloji bo'lsa, kasallikning rivojlanishini qo'zg'atadigan salbiy omillarni bartaraf etishga arziyi - bu birinchi navbatda chekishni tashlash, eng sog'lom turmush tarzini olib borish istagi, agar bronxial obstruktsiya rivojlanishining asosiy sababi kasbiy xavf, ish joyini o'zgartirish bo'lsa. maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, bronxodilatator terapiyasi, terapevtik nafas olish mashqlari ko'rsatilgan.

Bronxitning kuchayishi davrida antibiotik terapiyasi o'tkaziladi - balg'am tahlili natijalarini hisobga olgan holda dorilar individual ravishda tanlanadi.

Obstruktiv bronxitni davolashda balg'amni bo'shatishga yordam beradigan, bronxning o'tkazuvchanligini yaxshilaydigan ekspektoranlarning ahamiyati katta. Shu maqsadda ekspektoratsiyani rag'batlantiruvchi preparatlar, balg'amni suyultiruvchi dorilar va mukorgulatorlar buyuriladi.

Obstruktiv bronxit bilan fizioterapiya ko'rsatiladi. Ekspektoranlarning inhalatsiyasini, kaliy yodidning elektroforezini va antispazmodiklarni, sinusoidal modulyatsiyalangan oqimlarni qo'llang.

**Xulosa:**Bolalarda o'tkir va surunkali bronxitni davolashda dam olish, ko'p suyuqlik ichish va dori-darmonlarni to'g'ri qo'llash muhim ahamiyatga ega. O'tkir bronxit asosan uy sharoitida davolanishi mumkin, lekin surunkali holatlarda mutaxassis nazorati talab etiladi. Agar bolada yo'tal uzoq davom etsa yoki alomatlar yomonlashsa, shifokorga murojaat qilish kerak. Davolashning to'g'ri yondashuvi bolani tezroq sog'aytirishga yordam beradi va asoratlarning oldini oladi.

## Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1 . Milliy Tibbiyot Instituti (NIH). Bolalarda nafas olish kasalliklari: Qo'llanma va tavsiyalar. 2021-yil.
2. Pediatriya darsligi, Robert M. Kliegman, Joseph St. Geme. 21-nashr, 2019-yil.
3. <https://mymedic.uz/kasalliklar/pulmonologiya/bronxit/>

## КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ.

**Комилов Мехридин Маликович***Бухарский государственный педагогический институт,  
факультет военного образования*

**Аннотация:** Растущая зависимость государственных органов от цифровых систем повысила потребность в надежных системах кибербезопасности. В этой статье рассматривается важность кибербезопасности в государственных учреждениях, используемые методы и стратегии, а также проблемы, с которыми сталкиваются при обеспечении безопасности цифровых операций. В статье анализируется существующая литература по данному вопросу, представлены современные методы обеспечения кибербезопасности и даны рекомендации по повышению защищенности государственных учреждений от возникающих киберугроз.

**Ключевые слова:** кибербезопасность, государственные органы, национальная безопасность, цифровая инфраструктура, киберугрозы, политика безопасности, защита данных.

**Введение**

В современную эпоху государственные органы в значительной степени зависят от цифровых систем для выполнения государственных функций, предоставления услуг гражданам и обеспечения национальной безопасности. Однако растущая зависимость от технологий подвергает эти учреждения значительным киберугрозам. Кибербезопасность - это уже не просто техническая проблема, а проблема национальной безопасности. Обеспечение защиты конфиденциальных правительственные данных, инфраструктуры и систем связи от кибератак имеет жизненно важное значение для поддержания стабильности и целостности государства. В этой статье рассматриваются меры кибербезопасности, применяемые государственными органами, их эффективность и текущие проблемы, которые необходимо решить для защиты этих критически важных инфраструктур.

**Анализ литературы**

Недавние исследования подчеркивают растущую уязвимость государственных органов к кибератакам, подчеркивая необходимость разработки комплексных стратегий кибербезопасности. Такие авторы, как Anderson et al. (2020) и Williams (2021), утверждают, что государственные учреждения являются главными мишениями для киберпреступников и

спонсируемых государством хакерских атак из-за конфиденциального характера обрабатываемых ими данных. Во многих исследованиях подчеркивается важность применения активного подхода, который включает в себя не только технологические решения, но и обучение персонала и повышение его осведомленности. Обзор глобальной политики в области кибербезопасности показывает, что страны с надежной системой кибербезопасности, такие как США и Эстония, значительно снизили риск утечки данных и атак. Однако в литературе также указывается на отсутствие международного сотрудничества и нормативно-правовой базы как на серьезную проблему в борьбе с киберугрозами в глобальном масштабе.

### Методы

Методы, используемые для анализа практики обеспечения кибербезопасности государственных органов в данной статье, включают качественный обзор литературы экспертов по кибербезопасности, правительственные отчеты и тематические исследования успешных и неудачных внедрений кибербезопасности в государственных учреждениях. Кроме того, интервью со специалистами в области кибербезопасности в государственных секторах позволяют получить реальное представление о методах, используемых для защиты национальной цифровой инфраструктуры. Анализ сосредоточен на странах с устоявшейся системой кибербезопасности, включая США, государства - члены ЕС и несколько азиатских стран.

### Результаты

Кибербезопасность государственных учреждений имеет решающее значение, поскольку эти организации обрабатывают конфиденциальные данные и часто становятся мишенью киберпреступников, хакеров и даже спонсируемых государством субъектов. Защита государственных систем жизненно важна для защиты национальной безопасности, поддержания целостности государственных служб и обеспечения конфиденциальности данных граждан.

Ключевые аспекты кибербезопасности государственных учреждений включают:

**Защита данных :** Государственные учреждения хранят огромное количество конфиденциальной информации, включая личные записи, финансовые данные и сведения о национальной безопасности. Защита этих данных с помощью шифрования, контроля доступа и регулярных проверок имеет важное значение.

**Сетевая безопасность :** Государственные сети должны быть защищены от таких атак, как взлом, фишинг и программы-вымогатели. Это предполагает

использование брандмауэров, систем обнаружения вторжений и постоянного мониторинга для обнаружения любых уязвимостей.

**Контроль доступа :** Обеспечение того, чтобы только авторизованный персонал мог получить доступ к конфиденциальным системам и информации, является фундаментальной частью кибербезопасности. Многофакторная аутентификация и доступ с минимальными привилегиями являются распространенными методами обеспечения этого.

**Реагирование на инциденты :** Наличие четко определенного плана реагирования на инциденты позволяет государственным учреждениям быстро реагировать на кибератаки, уменьшать ущерб и восстанавливаться после нарушений.

**Обучение и повышение осведомленности :** Сотрудники государственного сектора должны быть обучены распознавать угрозы кибербезопасности, такие как фишинговые электронные письма и подозрительные ссылки, и реагировать на них, чтобы свести к минимуму человеческие ошибки.

**Соответствие требованиям и нормативные акты :** Правительства должны соблюдать различные законы, нормативные акты и рамки кибербезопасности, такие как GDPR (для защиты данных), руководящие принципы NIST (Национального института стандартов и технологий) и другие, чтобы обеспечить соблюдение стандартов кибербезопасности.

**Безопасность цепочки поставок :** Сторонние поставщики часто имеют доступ к государственным сетям, поэтому обеспечение безопасности этих внешних систем имеет решающее значение. Правительствам необходимо проверять поставщиков и обеспечивать соответствие их методов обеспечения безопасности национальным стандартам.

**Анализ угроз :** Постоянное информирование о возникающих угрозах с помощью платформ анализа угроз и сотрудничество с другими правительствами или фирмами, занимающимися кибербезопасностью, помогает в проактивной защите.

**Инвестируя в надежные меры кибербезопасности,** правительства могут обезопасить национальную инфраструктуру, защитить граждан и сохранить доверие общественности к своей способности управлять конфиденциальными данными.

### Обсуждение

Несмотря на достижения в области кибербезопасности, государственные органы по-прежнему сталкиваются с многочисленными проблемами в защите своей цифровой инфраструктуры. Одной из наиболее актуальных проблем является постоянное развитие киберугроз. Хакеры, в том числе спонсируемые

государством, постоянно разрабатывают все более изощренные методы взлома систем. Появление новых технологий, таких как квантовые вычисления, также создает потенциальные риски для существующих методов шифрования.

Другой серьезной проблемой является отсутствие глобального сотрудничества в области кибербезопасности. Киберпреступность часто выходит за рамки национальных границ, и без скоординированных международных усилий трудно эффективно противостоять этим угрозам. Кроме того, нехватка квалифицированных специалистов по кибербезопасности во многих государственных органах препятствует активному устраниению уязвимостей.

Интеграция кибербезопасности в стратегии национальной безопасности стала необходимой, но для этого требуются не только инвестиции в технологии, но и разработка политики, государственно-частное партнерство и международное сотрудничество.

### Выводы

Кибербезопасность является важнейшим аспектом национальной безопасности, и государственные органы должны принимать упреждающие меры для защиты своей цифровой инфраструктуры. На основе результатов этого исследования предлагаются следующие рекомендации:

**Увеличение инвестиций в инфраструктуру кибербезопасности:** Правительства должны выделять больше ресурсов для укрепления систем кибербезопасности и разработки безопасных цифровых платформ как для государственного, так и для частного секторов.

**Программы обучения и повышения осведомленности :** Регулярное обучение персонала на всех уровнях государственного управления имеет важное значение для обеспечения того, чтобы он понимал риски и был подготовлен к борьбе с киберугрозами.

**Международное сотрудничество:** Государства должны более тесно сотрудничать в разработке глобальных стандартов кибербезопасности и обмениваться информацией об угрозах для предотвращения трансграничных киберпреступлений.

**Внедрение новых технологий :** Внедрение передовых технологий, таких как искусственный интеллект и блокчейн, может повысить эффективность обнаружения и предотвращения киберугроз.

**Разработка законодательства и политики:** Правительствам следует разработать и обеспечить соблюдение всеобъемлющих законов о кибербезопасности, которые касаются как превентивных мер, так и реагирования на киберинциденты.

В заключение, кибербезопасность государственных органов имеет решающее значение для национальной безопасности в эпоху цифровых технологий. Несмотря на значительные успехи, постоянно меняющийся характер киберугроз требует постоянной адаптации, инноваций и международного сотрудничества для обеспечения безопасности и стабильности государственных институтов.

### Литература.

1. Административно-правовое регулирование в сфере экономики (современные формы и методы) / Е.В. Виноградова, И.В. Глазунова, А.А. Гришковец, М.Н. Кобзарь-Фролова, В.М. Редкоус [идр.]. Воронеж: Научная книга, 2021. 256 с.
2. Бачиловские чтения: материалы четвертой междунар. науч.-практ. конф. (Москва, 5-6 февраля 2022 г.) / отв. ред. Т.А. Полякова, А.В. Минбаев, В.Б. Наумов / Институт государства и права РАН. Саратов: ООО «Амирит», 2022. 568 с.
3. Виноградова Е.В., Кобзарь-Фролова М.Н. Академической науке административного права и административного процесса 85 лет // Труды Института государства и права Российской академии наук. 2021. Т. 16. № 6. С. 198-210.
4. Выступление В.В Путина на заседании Совета Безопасности 20 мая 2022 г. // URL: <http://www.kremlin.ru/events/president/news/68451> (дата обращения: 21.05.2022).
5. Редкоус В.М. Административно-правовые аспекты законодательного обеспечения кибербезопасности в государствах - участниках СНГ // Бачиловские чтения: материалы четвертой междун. науч.-практ. конф. (Москва, 5-6 февраля 2022 г.) / отв. ред. Т.А. Полякова, А.В. Минбаев, В.Б. Наумов / ИГП РАН. Саратов, 2022. С. 303-311.
6. Редкоус В.М. Административно-правовое обеспечение национальной безопасности в государствах - участниках Содружества Независимых Государств: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2011. 47 с.
7. Редкоус В.М. Некоторые вопросы совершенствования стратегии национальной безопасности Российской Федерации // Право и государство: теория и практика. 2009. № 8 (56). С. 83-88.

## QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARINI YOMG‘IRLATIB SUG‘ORISH JARAYONINING TEXNOLOGIK PARAMETRLARINI TADQIQI

Xudayarov Zafarjon Jumayevich

Toshkent davlat agrar universiteti, t.f.n., dotsent, O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Maqolada qisqa masofali yomg‘irlatish jarayonida deflektorli nasadkaning suv sarfi, yomg‘irlatish qurilmasining ish unumi tadqiq qilingan. Suv sarfi va yomg‘irlatish intensivligidan kelib chiqib, yomg‘irlatish kengligi, nasadkalar orasidagi masofalar asoslangan. Olingan natijalar qiymati diagrammalar ko‘rinishida berilgan va samarali sug‘orishni amalga oshirish uchun olingan natijalarni tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Gidrosistema, suv oqimi, yomg‘irlatish, nasadka, konsol, yomg‘irlatish intensivligi.

**Kirish.** O‘zbekistonda suv tanqisligi yildan-yilga ortib borayotgan bir sharoitda suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari va ularni amalga oshirishda qo‘llaniladigan qurilmalarni ishlab chiqish va qishloq xo‘jaligiga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Amaliyotda qo‘llanib kelinayotgan baraban quvurli yomg‘irlatib sug‘orish qurilmalarini respublikamiz iqlim-tuproq sharoitiga moslashtirish nuqtai-nazaridan tadqiqot ishlarini jadallashtirish zarur. Shu maqsadda mazkur mashinalar uchun ishlab chiqilgan konsolli qisqa masofali yomg‘irlatish qurilmalarini takomillashtirish zaruriyati kelib chiqadi. Past bosimda yuza bo‘ylab yomg‘irlatib sug‘orish qurilmasini konsolida o‘rnatilgan nasadkalar soni, ular orasidagi masofa, nasadkalarning konsoldan chiqish uzunligi yomg‘irlatishning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etadi.

**Tadqiqotning metodologiyasi va obyekti.** Yomg‘irlatish mashinalarining ish unumi yomg‘irlatish nasadkalarining suv sarfi, yomg‘irlatish qurilmasining ilgarilanma harakati tezligi, qamrash kengligi kabi kattaliklar bilan tavsifланади [1].

Yomg‘irlatish nasadkasining suv sarfi quyidagicha aniqlanadi [2]:

$$q_n = \frac{\pi \cdot d_n^2}{4} \vartheta_o ,$$

yoki 
$$q_n = 3600 \frac{\pi \cdot d_n^2}{4} \vartheta_o , \quad (1)$$

bunda  $\vartheta_o$  – nasadka naychasidagi suv oqimi tezligi, (2.95) e’tiborga olsak  $\vartheta_o = \vartheta_A = \sqrt{\frac{2P_1}{\rho_s(1+\zeta^2)}}$ , m/s;  $P_1$  – suv quvuridagi bosim, Pa;  $d_n$  – nasadka naychasi teshigi diametri, m;  $\rho_s$  – suv zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $\zeta$  – suv quvuridagi mahalliy qarshilik koeffitsienti,  $\zeta = 1,65$  [3].

Mashinaning suv sarfi:

$$Q_m = n \cdot q_n = \frac{\pi \cdot d_n^2}{4} \cdot n \cdot \sqrt{\frac{2 \cdot P_1}{\rho_s \cdot (1 + \zeta^2)}}, \quad (2)$$

$$Q_m = \frac{3600 \cdot n \cdot q_n}{1000} = 2,826 \cdot d_n^2 \cdot n \cdot \sqrt{\frac{2 \cdot P_1}{\rho_s \cdot (1 + \zeta^2)}}, \quad (3)$$

bunda  $n$  – qurilmada nasadkalar soni, dona.

Yomg'irlatib sugarish qurilmasining ish unumini aniqlaymiz [1]:

$$\Pi_{ga} = \frac{3600 \vartheta_m B_q}{10000}, \quad (4)$$

bunda  $B_q$  – qurilmani qamrash kengligi, m.

U holda dala yuzasiga yomg'irlatilgan suv miqdori quyidagiga teng:

$$Q = \frac{2500 \cdot \pi \cdot d_n^2 \cdot n \cdot \sqrt{\frac{2P_1}{\rho_s(1+\zeta^2)}}}{\vartheta_m \cdot V}. \quad (5)$$


Yomg'irlatib sugarish qurilmasining yomg'irlatilgan suv miqdori  $B_q$  qamrash kengligiga to‘g‘ri proporsional. Agar  $B_q$  ning qiymati unga o‘rnatilgan nasadkalar soniga bog‘liqligini e’tiborga olsak, nasadkalarni o‘rnatilish sxemasi va ular orasidagi masofa qurilmaning ish unumiga bevosita ta’sir etadi [4].

Suv tomchisini uchish masofasi ma’lum bo‘lsa, bitta nasadkaning qamrash kengligi (yomg'irlatish kengligi) ni aniqlash mumkin. Nasadkalarni turli sxemalarda joylashtirish va ular tomonidan yomg'irlatilgan yuzalarni o‘zaro bir-birini qoplashini, yomg'irlatish intensivligini ruhsat etilgan qiymatidan oshib ketmasligini inobatga olib qurilmaning qamrash kengligi asoslanishi kerak. 1-rasmida nasadka segmentlaridan uchib chiqqan suv tomchisini dala sektorlaridagi uchish masofasini Z (frontal) o‘qidagi proeksiyasining diagrammalari keltirilgan. Nasadkalarni joylashish sxemasi va ular orasidagi masofa K ni quyidagi shartdan aniqlaymiz:

$$2 \cdot L_{i+1int\ max} \cos \gamma \leq K \leq 2 \cdot L_{i+1max} \cos \gamma, \quad (6)$$

bunda  $L_{i+1int\ max}$  – yomg'irlatish intensivligi eng yuqori bo‘lgan sektordagi suv tomchisining uchish masofasi;  $L_{i+1max}$  – n ta sektorlar orasida suv tomchisining eng katta uchish masofasi;  $\gamma$  – yomg'irlatish markazidan  $n$ -sektorning A nuqtasiga o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziq bilan Z o‘qi orasidagi burchak (2-rasm).

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** (6) formula bilan ifodalangan shart bitta nasadkaning yomg'irlatish qamrov kengligidan kelib chiqib, nasadkalarning joylashish sxemasi va orasidagi masofani aniqlashga imkon beradi. Bu yerda, yonma-yon joylashgan ikkita nasadkaning eng katta yomg'irlatish intensivligiga ega sektorlaridan yomg'irlatilgan suv tomchilarini ustma-ust tushishini oldi olinadi, shu bilan birga intensivligi kam sektorlardan yomg'irlatilgan suv tomchilarini o‘zaro qoplashi ta’minlanadi.



**1-rasm. Yomg'irlatish kengligining suv tomchisining boshlang'ich tezligiga bog'liqligi diagrammalari**

Nasadkalarni konsolda shaxmat sxemasida o'rnatilishini qabul qilamiz. U holda nasadkalar orasidagi masofa quyidagicha aniqlanadi (2 -rasm):


$$K = (L_{11i+1} + L_{12i+1}) \cos \gamma, \quad (7)$$

bunda  $L_{11i+1}$  va  $L_{12i+1}$  – yonma-yon joylashgan nasadkalarning eng katta yomg'irlatish intensivligiga ega sektorlardagi suv tomchisining masofasi, m.

Eng yuqori yomg'irlatish intensivligi  $I_{io,rt}$  markaziy sektoring  $\varphi = 0 - 15^\circ$  sektorga to'g'ri keladi. Bunda  $\gamma = 90 - 15^\circ = 75^\circ$  teng.  $L_{io,rt} = 4,93$  m va  $\gamma = 75^\circ$  qiymatda  $K=2-2,4$  m ga teng.

2-sxemada nasadkalarni konsoldan chiqish masofasi  $\Delta$  bilan belgilangan.

Eng katta oniy yomg'irlatish intensivligi  $\varphi_1 = 0-15^\circ$  sektorga to'g'ri keladi va  $L_{i+1 int max} = 4,93$  m,  $\gamma = 75^\circ$  qiymatga teng. Bundan  $K=2-2,4$  m ga teng. Konsolni old tomoniga  $O_{11}$ ,  $O_{12}$  va ort tomoniga  $O_{21}$  nuqtalarga o'rnatilgan nasadkalar orasidagi masofa  $2\Delta \geq \vartheta_m t$  shartdan ( $t=60$  s) qurilmaning  $\vartheta_m = 0,01-0,03$  m/s tezligi uchun  $\Delta = 0,18-0,54$  m ga teng. Yomg'irlatib sugarish qurilmasini konstruksiyalash uchun  $K=2$  m,  $\Delta=0,5$  m qiymat qabul qilindi [6].



1-konsol; 2-nasadkani konsoldan chiqarish quvuri; 3-nasadka

## 2-rasm. Nasadkani konsolda o'rnatalish parametrlarini aniqlash uchun sxema

Yomg'irlatish intensivligi epyurasidan foydalanib nasadkalarni yomg'irlatish qurilmasida turli xil o'rnatalish kombinatsiyalarida  $B_q$ -qamrash kengligi sxemasi qurildi. Sxemada 1-birinchi qator nasadkalar hosil qilgan yomg'irlatish intensivligining epyurasi, 2-ikkinchi qator nasadkalar hosil qilgan yomg'irlatish intensivligining epyurasi, 3-birinchi va ikkinchi qator nasadkalari hosil qilgan yomg'irlatilgan suv qatlami qalinligi,  $\sigma$  masofa bilan qurilmaning qamrash kengligi bo'yicha yomg'irlatilgan suv qatlami qalinligining farqi ko'rsatilgan.

Qamrash kengligi  $B_{q2}$  ni aniqlash uchun sxema 3-rasmida keltirilgan.

Yomg'irlatib sugarish qurilmasi konsolining qamrash kengligi  $B_{q1}$  va yomg'irlatish kengligi  $B_{q2}$  quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:


$$B_{q1} = \frac{(n-1) \cdot K}{2}; \quad B_{q2} = B_{q1} + b_1 = \frac{(n-1) \cdot K}{2} + \eta b_1,$$

yoki

$$B_{q2} = \frac{(n-1) \cdot K}{2} + 2\eta L_{i+1max} \cos \gamma \quad (8)$$

bunda  $n$  – qurilmada nasadkalar soni;  $K/2$  – ikkita yonma-yon joylashgan nasadkalar orasidagi masofa,  $b_1$ -chetki nasadkalar hosil qilayotgan qushimcha yomg'irlatish zonasini bo'lib, bu nasadkalardan yomg'irlatilgan tomchining eng katta uchish masofasini Z o'qiga proeksiyasiga teng:  $b_1 = 2 \cdot L_{i+1max} \cos \gamma$ ;  $\eta$  – chetki nasadkalarning qamrash kengligini hisobga oluvchi koeffisient,  $\eta=2/3$  qiymatga teng [33].


2-rasmdagi grafiklardan  $L_{i+1max}$  eng katta qiymati  $\varphi=30-45^\circ$  sektorga to‘g‘ri keladi va suv tomchisining boshlang‘ich uchish tezligi  $\vartheta_B = 8 \text{ m/s}$  uchun



k-nasadkalar orasidagi masofa;  $\Delta$ -nasadkani konsoldan chiqish masofasi; 1-nasadka; 2-yomg‘irlatish konsoli; 3-qurilma yurish qismi g‘ildiragi

### **3-rasm. Yomg‘irlatib sugarish qurilmasining qamrash kengligini aniqlash uchun sxema**

$L_{i+1max}=4,18 \text{ m}$ ,  $\vartheta_B=5 \text{ m/s}$  uchun  $L_{i+1max}=2,64 \text{ m}$ ,  $\vartheta_B=3 \text{ m/s}$  uchun  $L_{i+1max}=1,42 \text{ m}$  ga teng. Yomg‘irlatib sugarish qurilmasini ushbu qiymatlar asosida hisoblangan qamrash kengligi 4-rasmdagi diagrammada keltirilgan.



1-  $B_{q1}$ ; 2-  $B_{q2}$ ,  $\vartheta_B=8 \text{ m/s}$ ; 3-  $B_{q2}$ ,  $\vartheta_B=5 \text{ m/s}$ ; 4-  $B_{q2}$ ,  $\vartheta_B=3 \text{ m/s}$ ;

### **4-rasm. Yomg‘irlatib sugarish qurilmasini qamrash kengligini nasadkalar soniga bog‘liqligi: $K=2,0 \text{ m}$**

**Хулоса.** Shunday qilib, yomg‘irlatish jarayonining texnologik va konstruktiv parametrlaridan ish unumi  $q$ , nasadkalar orasidagi masofa  $K$  va qurilmaning qamrash kengligini  $B_{q2}$  ifodalovchi matematik bog‘lanishlar olindi. Yomg‘irlatib sugarish qurilmasini sanoat nusxasini konstruksiyalash uchun  $n=46$ ,  $B_{q1}=45 \text{ m}$ ,  $B_{q2}$

=50,6 m qiymatlarni qabul qilish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshboltaev M. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida mashina-traktor agregatlaridan foydalanish darajasini oshirishning nazariy-metodologik asoslari. – “Fan va texnologiya”, Toshkent, 2016.
2. Khudayarov Z.J. Investigation of the process of irrigating agricultural lands under artificial irrigation // World Bulletin of Social Sciences. – Vol. 34, 2024. – pp. 36-39. (Journal Impact Factor: 10.265, SJIF 2024: 7.73).
3. Нагорный В.А. Повышение эффективности полива ДМ «Фрегате» при использовании новых дождеобразующих устройств. Вестник Саратовского госагроуниверситета им. Н.И. Вавилова. – 2009. – № 2. – С. 54-56.
4. Khudayarov Z.J. Formation of artificial raindrops on the deflector attachment of rainmaking machines // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – Vol. 28, 2024. – pp. 57-61.
5. Карпова О.В. Усовершенствованные устройства приповерхностного дождевания дождевальной машины «ФРЕГАТ»: Дисс. ... канд.техн.наук. – Саратов, 2017. – С. 197.
6. Xudayarov Z.J. Yomg‘irlatib sug‘orish mashinalari texnologik jarayonini takomillashtirish. Journal of New Century Innovations (January, 2023). – Russia, 2023. – Vol. 20, Issue 1. – pp. 3-6.

## YOMG‘IRLATIB SUG‘ORISH QURILMASI KONSTRUKTIV-FUNKSIONAL STRUKTURASINI MORFOLOGIK TAHLILI VA QAMRASH KENGLIGINI OSHIRISHNING TEXNIK YECHIMI

Xudayarov Zafarjon Jumayevich  
Omonov Dilmurod Sadievich,  
Toshkent davlat agrar universiteti

**Annotatsiya.** Maqola yomg‘irlatib sug‘orish qurilmalarini muxandislik qonun va qonuniyatlarini asosida qamrash kengligini oshirishga va bu orqali yuqori ish unumdarligini ta’minlashga bag‘ishlangan. Koller operatsiyalari, fizik-texnik effektlar va sohalararo evristik usullarni qo‘llash orqali texnik yechim ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar.** Yomg‘irlatib sug‘orish, qamrash kengligi, konstruktiv-funksional struktura, Koller operatsiyalari, fizik-texnik effektlar, evristik usullar, sun’iy yomg‘ir.

**Кириш.** Yomg‘irlatish nasadkasi elementlarining har biri mustaqil texnik ob’ekt (TO) sifatida suv tomchisini dala yuzasiga yetkazib berish funksiyasini bajaradi va sug‘orish jarayonida suv oqimini sun’iy yomg‘irga aylantirish fizik jarayonini amalga oshiradi va bu elementlar o‘rtasida ikki turdag‘i bog‘lanishlar va shunga mos ravishda ikki turdag‘i tizimli boshqaruv vujudga keladi. Bu elementlar bir-biri bilan ma’lum funksional aloqalarga ega bo‘lib, ular nasadkaning konstruktiv-funksional strukturasini (KFS) tashkil qiladi [1].

**Tadqiqotning metodologiyasi va obyekti .** KFS ni har bir elementining fizik operatsiyalarini (FO) tavsiflash quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q = (A_T, E, C_T) \quad \text{yoki} \quad Q = (A_T \rightarrow E \rightarrow C_T) \quad (1)$$

Bunda -  $A_T$ ,  $C_T$  moddaning, energiyaning yoki signalning kirish va chiqish oqimlari,  $E$  -  $A_T$  ni  $C_T$  ga aylantirishning Koller operatsiyalari. Bu “nima”ni ( $A_T$ ) “qanday” ( $E$ ) “nima”ga ( $C_T$ ) aylantirish savoliga javob beradi.

Kirish  $A_T$  va chiqish  $C_T$  oqimlarining tavsifi quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:


- a) modda, energiya, signal yoki shunga o‘xshash boshqa omillarning nomlanishini;
- b) texnik ob’ektning texnik yechimiga sezilarli ta’sir etuvchi oqimning tavsifini
- v) oqimni (omilni) tavsiflovchi asosiy fizik kattalikni, uning standart belgilanishi va o‘lchov birligini;
- g) oqim (omil) ning miqdoriy tasnifini, texnik yechimga sezilarli ta’sir etuvchi fizik kattalikning qiymatini. Bunda  $A_T$  va  $C_T$  ning o‘zgarish diapozoni ko‘rsatilishi kerak.


Nasadka (TO) elementlari orasida funksional aloqalardan tashqari, oqim aloqalari ham mavjud. Ular ma'lum fizik jarayonlarni amalga oshirib, suv oqimini holati va xossalalarini o'zgartirish orqali suv tomchisiga shakl, o'lcham, yo'nalish berishi lozim bo'lgan o'zaro munosabatni hosil qiladi. Bu munosabatlar nasadka elementlarini va shunga mos ravishda ular bajarayotgan fizik jarayonlarni birlashtiradi va bog'laydi. Bu bog'lanishlardan yomg'irlatish qurilmasining oqim funksional strukturasi (OFS) yuzaga keladi. OFS lar Koller operatsiyalari E, kirish  $A_T$  va chiqish  $C_T$  faktorlari asosida quriladi. Barcha texnik ob'ektlar singari yomg'irlatish qurilmasini tadqiq qilish va takomillashtirish bo'yicha texnik yechimlar topishda KFS va OFS bir-birini to'ldiradi. OFS da har bir element ma'lum bir fizik operatsiyani amalga oshiradi. Ushbu jarayon bir yoki bir necha fizik-texnik effektlar asosida sodir bo'ladi.

Yuqorida aytilganlar asosida yomg'irlatib sug'orish qurilmalarini yomg'irlatish kengligini oshirish bo'yicha oqim funksional struktura (OFS) yordamida texnik yechimni izlaymiz.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida qo'llanib kelinaётган ёмг'ирлатиш суг'ориш qurilmalarining texnologik sxemasi 1-rasmda keltirilgan.

Quvurli-barabanli YSQ harakatlanuvchi yomg'irlatish konsoli va quvurni o'rovchi barabanli shossedan iborat. Tayanch-harakatlanish shossesiga 1 o'rash mexanizmiga 3 ega baraban 2 o'rnatilgan. Yomg'irlatish konsolining 5 tayanch-yurish aravachasi 4 mavjud. Barabanga egiluvchan suv ta'minoti quvurlari 6 o'ralgan bo'lib, uning bir uchi yomg'irlatish konsolining tayanch-yurish aravachasiga 4 biriktirilgan. Sug'orish boshlanishidan oldin yomg'irlatish qurilmasi suv manbaiga ega suv nasosiga ulanadi, egiluvchan quvurlar barabandan tarqatilib, yomg'irlatish konsoli tayanch-harakatlanish shossesidan ma'lum masofada ishchi holatga keltiriladi. Nasoslar orqali suv ta'minoti quvurlariga suv bergenida, baraban sekin aylantirib, egiluvchan quvurni o'ray boshlaydi va yomg'irlatish konsoli harakatga keladi. Yomg'irlatish konsoli barabanga yaqinlashganda suvni to'xtatish tizimi ishga tushadi va konsol qurilma yonida to'xtaydi. Sungra yomg'irlatish qurilmasi qamrov kengligiga teng bo'lgan masofaga ko'chiriladi va texnologik jarayon takrorlanadi.






1 – Quvur-barabanli YSQ ning tayanch-harakatlanish shossesi; 2 – baraban; 3 – barabanni aylanishini ta'minlovchi o'rash mexanizmi; 4 – tayanch-yurish aravachasi; 5 – yomg'irlatish konsoli (yomg'ir hosil qiluvchi moslama); 6 – suv ta'minoti quvuri

### 1-rasm. Quvurli-barabanli yomg'irlatish mashinasining konstruktiv-komponovka sxemasi

Дунё миқёсида шаҳарсозлик ва саноатнинг ривожланиши натижасида, аҳоли масканларини кўкаламзорлаштиришда, микроиқлимини оптималлаштиришда манзарали интродуцент дараҳт ва буталардан кенг фойдаланишни тақозо этмоқда. Замонавий дендрологик тадқиқотларда, аҳоли масканларининг қарийб 45-50 % майдони дараҳт ва буталардан иборат яшил худудлар билан қопланиши зарурлиги қайд этилган.

Кейинги йилларда республикамиз шаҳарларини ободонлаштириш, инфратузилмасини яхшилаш ва замонавий архитектура қоидаларига мос равишда кўкаламзорлаштириш ишларини олиб боришга эътибор қаратилмоқда. Бу ўринда кескин континентал иқлимга мос келадиган дараҳт ва буталарнинг намуналари кенгайтирилди, кўкаламзорлаштириш учун чидамли янги тур ва навлари иқлимлаштирилди, уларнинг истиқболли вакиллари республикамизнинг турли вилоятларини ободонлаштиришга жорий этилди.

Маълумки, интродукция қилинаётган дараҳт ва буталар аввал ботаника боғларида ёки махсус жойларда тажриба усулида экиб ўстирилиб, шу аснода мунтазам синовдан ўтказилади (1). Мазкур жараёнда уларнинг янги муҳитда ўсиши ёки ўса олмаслиги, айрим ҳолларда уларнинг бутунлай қуриб қолиши ҳолатлари ҳам кузатилади. Ўсимликларнинг интродукцияси ҳар доим ҳам муваффақиятли амалга ошавермайди (2).

Жиззах шаҳрига интродукция қилинган дараҳт ва буталарнинг табиий тарқалиш ареаллари таҳлил қилинди. Дастлаб худуддаги ёпик уруғли дараҳтларнинг табиий ареаллари хусусида сўз юритамиз. Жиззах шаҳри шароитида ёпик уруғли дараҳтларнинг 55 тури интродукция қилинганлиги қайд этилди. Жиззах шаҳрига интродукция қилинган ўсимликларнинг аксарият қисмининг асл ватани Сибир, Кавказ, Шимолий Америка, Эрон, Япония, Хитой, Афғонистон ва бошқа мамлакатлар эканлиги кузатилди.

Шу қаторда қўпчилик дараҳт ва буталарнинг келиб чиқиши маркази сифатида Кавказ давлатлари эгаллаган. Шуни қайд этиш лозимки, Кавказнинг табиати ўзига хосдир. Мазкур худуд, Евроосиёнинг тоғли минтақаси бўлиб, Шарқий-Европа пасттекислигининг жанубида яъни Европа ва Осиё қитъаларининг чегарасида жойлашган. Фардан Қора денгиз, шарқдан Каспий денгизи минтақани ўраб туради. Мазкур ҳолат дараҳт ва буталар учун оптимал ҳисобланади. Худуд *Acer pseudoplatanus*, *A. platanoides*, *Sambucus nigra*, *Populus*

alba, Fraxinus excelsior, Quercus afares, Q.robur, Rhus coriaria каби турларнинг табиий тарқалиш ареали ҳисобланади (3).

Тадқиқотлар таҳлили ҳамда мавжуд адабиётлардаги маълумотлар шуни кўрсатадики, кўпгина дараҳт ва буталарнинг келиб чиқиши маркази айнан Ўрта Осиё ва унга ёндош бўлган худудлар эканлиги қайд этилди. Хусусан толдошлар оиласининг кўплаб вакилларининг (*Salix × fragilis f.vitellina* (L.) I.V.Belyaeva, *Salix capusii* Franch., *Salix estipulata* Kit., *Salix songarica* Andersson, *Salix turanica* Nasarow) табиий ареали Ўрта Осиё худудларида шаклланган. Мазкур ҳолатни *Populus* турларида ҳам кўришимиз мумкин. Ўрта Осиё, хусусан Ўзбекистонга интродукция қилинган аксарият дараҳт ва буталар Америка ва Европадан келтирилган. Бундай турларга *Acer negundo* L., *Gleditsia triacanthos* L., *Aesculus hippocastanum* L., *Magnolia grandiflora* L., *Maclura pomifera* (Raf.) C.K.Schneid. ва бошқаларни мисол келтиришимиз мумкин (1.1 - жадвал).

### 1.1.-жадвал

#### Жиззах шаҳрида тарқалган манзарали ёпиқ уруғли дараҳтларнинг табиий тарқалиш ареали

#	Номи	Хозири Ареали	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
1.	<i>Acer negundo</i> L.	Шимолий Америка: Көнгли тоглардан Атлантика кирғокларигача ва Канададан Флоридагача	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
2.	<i>Acer pseudoplatanus</i> L.	Карпат, Кавказ ва Ғарбий Европа	Голарктик	Циркумбореаль
3.	<i>Acer platanoides</i> L.	Европадан Карелиягача тарқалган ўрмонларда Кавказ ва Болконда	Голарктик	Циркумбореаль
4.	<i>Acer pentapanicum</i> J.L.Stewart	Афғонистон, Покистон, Марказий Осиё ва Ғарбий Шимолай Dengiz sathidan 1900 dan 2800 m balandlikda o'sishni afzal ko'rgan holda, u sodir bolgan or'monli joylarda ундош мингтака a'sozsi hisoblanadi.	Голарктик	Эрон-Турон
5.	<i>Acer tataricum</i> subsp. <i>semenovii</i> (Regel & Herder) A.E.Murray	Шаркий Мұғалистандан Корея ва Япониягача	Голарктик	Шаркий Осиё
6.	<i>Acer platanoides</i> subsp. <i>turkestanicum</i> (Pax) P.C.de Jong	Ғарбда Франциядан ва Россиянинг Европа кисмигача	Голарктик	Циркумбореаль
7.	<i>Aesculus hippocastanum</i> L.	Албания, Болгария, Гречия	Голарктик	Ўртаерденгизи
8.	<i>Ailanthus altissima</i> (Mill.) Swingle	Шаркий Хитой	Голарктик	Шаркий Осиё
9.	<i>Albizia julibrissin</i> Durazz.	Эрон, Туркия, Озарбайжоннинг жануби-шаркий худудлари, Хитой, Япония, Тайвань, Шимолий Хиндистон (Бутан, Непал, Кашмир), (Бирма) Ареалини кенгайтирмоқда. Жудаям мослашувчан	Палеотропик	Судан-Замбия ва Хинд
10.	<i>Betula tianschanica</i> Rupr.	Қозогистон, Кирғизистон, Мұғалистан, Тоҷикистон, Ўзбекистон, Шинжон худудларида	Голарктик	Эрон-Турон
11.	<i>Broussonetia papyrifera</i> (L. L'Hér. ex Vent)	Шаркий ва жануби-шаркий Осиё (Хиндистон (Ассам), Bangladesh, Kambodja, Shimoliy-Markaziy Xitoy, Janubiy-Markaziy Xitoy, Janubi-Sharqiy Xitoy, Xaynan, Hindiston, Koreya, Laos, Myanma, Tayvan, Tailand, Tibet, Vietnam)	Палеотропик	Хинд, Хиндиҳитой
12.	<i>Buxus sempervirens</i> L.	Ғарбий ва Жанубий Европа, шимоли-ғарбий Африка, Олд Осиё	Голарктик	Ўртаерденгизи
13.	<i>Catalpa speciosa</i> Teas	Шимоли Американинин жануби-шаркий худудлари, дарё бўйлари	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
14.	<i>Catalpa bignonioides</i> Walter	Шимолий Америка жануби-шаркий худудлари (Alabama, Florida, Йоржиа, Luiziana, Missisipi, Texas, Vermon)	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
15.	<i>Celtis australis</i> L.	Жанубий Европа, Шимолий Африка ва Кичик Осиёнинг кургокчил худудлари	Голарктик	Ўртаерденгизи
16.	<i>Celtis Caucasicus</i> Willd.	Туркия, Кавказ, Марказий Осиё ва Ғарбий Шимолой тоглари	Голарктик	Эрон-Турон
17.	<i>Cercis siliquastrum</i> L.	Жанубий Европа, Кичик Осиё, Афғонистон, Эрон, Ирок	Голарктик	Ўртаерденгизи

18.	<i>Fraxinus excelsior</i> L.	Европа, Жанубий Кавказ	Голарктик	Циркумбореаль
19.	<i>Fraxinus pennsylvanica</i> Marshall	Шимолий Америка мұтадил икlimli худудлардаги барғли үрмөнләрдаги дарә бўйларидан, нам жойларда	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
20.	<i>Gleditsia triacanthos</i> L.	Ареали Шимолий Америка шаркий қисмининг марказий худудларида: Нью-Йорк ғарби ва Пенсильваниядан Миннесота жанубигача ( $43^{\circ}$ ), шаркий Канзасдан Техасгача давом этган	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
21.	<i>Gymnocladus dioica</i> (L.) Koch.	Америка кўшма штатлари, Канада, Техас ва Луизианадан, Онтарио ва Жанубий Дакотада, Аппалачи тоги этакларидаги сув тошкнилар бўладиган боткоқли худудларгача ўсади	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
22.	<i>Koelreuteria paniculata</i> Laxm.	Шимолий-Markaziy, Xitoy Janubi-Markaziy, Xitoy Janubi-Sharqiy, Koreya, Manchuriya (Хитой)	Голарктик	Шаркий Осиё
23.	<i>Liriodendron tulipifera</i> L.	Шимолий Американинг шаркий худудлари: Миссисипи ва Флоридада унумдор, нам ва ёргулук яхши тушадиган жойларда, дарә бўйи ва тоб ёнбагирларида (д.с. 1350-1600 м гача) якка-якка ўсади	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
24.	<i>Maclura pomifera</i> (Raf.) C.K. Schneid.	Шимолий Америка жануби-шаркининг марказий (Техас, Оклахома ва Арканас) үрмөнләрида	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
25.	<i>Magnolia grandiflora</i> L.	Шимолий Америка жануби-шаркий қисми үрмөнләрида	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик
26.	<i>Magnolia sulawesiana</i> Brambach, Noot. & Culmsee	Хиндомалай (Индонезия (Сулавеси ороли))	Палеотропик	Малезия
27.	<i>Magnolia liliiflora</i> Desr.	Жануби-марказий ва жануби-шаркий Хитой	Голарктик	Шаркий Осиё
28.	<i>Platanus × hispanica</i> Mill. ex Münchh.	Шимолий Америка ва Ўрта ер денгизи	Голарктик	Ўртаерденгизи, Шимолий Америка-Атлантик
29.	<i>Platanus orientalis</i> L.	Жанубий Европа, Кичик Осиё	Голарктик	Ўртаерденгизи
30.	<i>Populus alba</i>	Шимолий Африка, Европанинг Скандинавиядан бошقا худудлари, Марказий, Кичик Осиё	Голарктик	Эрон-Турон, Ўртаерденгизи, Циркумбореаль
31.	<i>Populus pruinosa</i> Schrenk	Афғонистон, Ўрта Осиё, Шинжон (Хитой))	Голарктик	Эрон-Турон
32.	<i>Populus nigra f. italica</i> (Münchh.) A. Andersen	Химолай	Голарктик	Эрон-Турон
33.	<i>Populus tremula</i> L.	Сибир, Кавказ, Ўрта Осиё	Голарктик	Эрон-Турон, Ўртаерденгизи, Циркумбореаль
34.	<i>Ptelea trifoliata</i> L.	Шимолий Америка: АҚШнинг жануби шарқидан Мексикагача бўлган худудлардаги барғли үрмөнларда, Аризона каньонларида ўсади	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик, Мадреан
35.	<i>Robinia pseudoacacia</i> L.	Шимолий Америка: Аппалачи тоги этакларидан жануби-ғарбий үрмөнларгача, АҚШнинг Пенсильвания, Виргиния, Кентукки штатларида ўсади	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик, Мадреан
36.	<i>Quercus robur</i> L.	Кавказ, Европа, Ўртаерденгизи, Кичик Осиё	Голарктик	Ўртаерденгизи, Циркумбореаль
37.	<i>Rhus coriaria</i> L.	Жанубий Европа, Шимолий Африка, Гарбий ва Ўрта Осиё	Голарктик	Эрон-Турон, Ўртаерденгизи,

38.	<i>Rhus aromatica</i> var. <i>aromatica</i>	Шимолий Американинг шаркий қисмida: шимолда Онтарио ва Вермонтдан жанубда Онтарио ва Луизианагача	Голарктик	Шимолий Америка-Атлантик, Мадреан
39.	<i>Sambucus nigra</i> L.	Азор ва Мадейра ороллари, Шимолий Африка, Туркия, гарбий ва шимолий Эрон, Европа, Жанубий Кавказ, Украина, Молдавия, Белоруссия кенг барғли үрмөнлари	Голарктик	Макаронезия, Ўртаерденгизи, Циркумбореаль
40.	<i>Styphnolobium japonicum</i> (L.) Schott	Хитой, Япония	Голарктик	Шаркий Осиё
41.	<i>Tilia cordata</i> Mill.	Британия жанубидан Гарбий Сибирнинг марказий районларнгача, Кавказ, Болгария, Италия ва Испаниядаги үрмөнларда, Гарбий Осиёда ўсади	Голарктик	Ўртаерденгизи, Циркумбореаль
42.	<i>Salix alba</i> L.	Европанинг мұтадил зонаси	Голарктик	Циркумбореаль
43.	<i>Salix × fragilis</i> f. <i>vitellina</i> (L.) V.L. Belyaeva	Европа, Гарбий ва Ўрта Осиё	Голарктик	Циркумбореаль, Эрон-Турон
44.	<i>Salix babylonica</i> L.	Шимолий Хитой, Корея	Голарктик	Шаркий Осиё
45.	<i>Salix caputii</i> Franch.	Афғонистон, Қозғистон, Покистон, Тоҷикистон, Ўзбекистон, Гарбий Химолай	Голарктик	Эрон-Турон
46.	<i>Salix estipulata</i> Kit.	Ўрта Осиё	Голарктик	Эрон-Турон
47.	<i>Salix songarica</i> Andersson	Афғонистон, Қозғистон, Туркменистан, Ўзбекистон	Голарктик	Эрон-Турон
48.	<i>Salix turanica</i> Nasarov	Афғонистон, Ўрта Осиё, Гарбий Химолай, Шинжон	Голарктик	Эрон-Турон
49.	<i>Ulmus laevis</i> Pall.	Марказий ва жануби-шаркий Европа, Кичик Осиё, Кавказ	Голарктик	Ўртаерденгизи, Циркумбореаль
50.	<i>Ulmus densa</i> Litv.	Ўрта Осиё	Голарктик	Эрон-Турон
51.	<i>Ulmus pumila</i> L.	Хитой, Қозғистон, Гарбий Сибир, Мұғалистан, Тибет, Хиндистон, Корея	Голарктик	Эрон-Турон, Шаркий Осиё
52.	<i>Ulmus × androssowii</i> Litv.	Ўрта Осиё	Голарктик	Эрон-Турон
53.	<i>Ulmus parvifolia</i> Jacq.	Хитой, Япония	Голарктик	Эрон-Турон
54.	<i>Ulmus zbekistanica</i> Drob.	Ўрта Осиё	Голарктик	Эрон-Турон
55.	<i>Spartium junceum</i> L.	Ўртаерденгизи, Шимолий Африка	Голарктик	Ўртаерденгизи
56.	<i>Hibiscus syriacus</i> L.	Хитой, Корея	Голарктик	Хитой
57.	<i>Ligustrum lucidum</i> Ait Fil.	Шаркий Осиё, Тайван	Палеотропик	Малазия
58.	<i>Syringa vulgaris</i> L.	Болкон ярим ороли	Голарктик	Евроосиё
59.	<i>Lagerstroemia indica</i>	Хитой, жанубий-шаркий Осиё, Хиндистон	Палеотропик	Африка ва Малазия
60.	<i>Paulownia tomentosa</i> Siebold & Zucc.	Хитой	Голарктик	Хитой-Япония



*Juniperus virginiana*, *Picea pungens*, *Picea excelsa*, *Taxodium distichum* var. *imbricarium*, табий ареаллари Шимолий Америка худудларини ўз ичига олади.

Хулоса қилиб айтганда дунёниг кўплаб йирик шаҳарларида, балки республикамизда ҳам интродукция қилинган очик ҳамда ёпиқ уруғли ўсимликлардан манзарали ўсимлик сифатида кенг фойдаланилади. Жиззах шаҳрида очик уруғли дараҳтларнинг 15 тури учраши қайд этилди. Республикамиз худудида очик уруғлиларнинг айнан арча ва қарагай турларидан кенг тарқалган, бу эса инсон саломатлигини янада яхшилашда кенг миқёсда фойдаланилади.

### ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР

1. Матвеева, Р. Н. Интродукция растений в дендрарии СибГТУ / Р. Н. Матвеева, О. Ф. Буторова, А. Б. Романова. – Красноярск СибГТУ, 2000. – 194 с.
2. Романова А. Б. Интродукция древесных растений: учеб. пособие / А. Б. Романова; СибГУ им. М. Ф. Решетнева. – Красноярск, 2018. – 86 с.
3. Гроздова, Н.Б. Деревья, кустарники и лианы/Н.Б. Гроздова, В.И. Некрасов, Д.А., Г. Михайленко. – М.: Лесная промышленность, 1986. – 349с
4. Карпун Ю. Н. Декоративная дендрология Северного Кавказа: учебник / Ю. Н. Карпун, С. Б. Криворотов. – Краснодар: КубГАУ, 2009. – 471 с.
5. Ареалы деревьев и кустарников СССР. В 3 т. Л.: Наука, 1977–1986. Т. 1–3.
6. Ахунов М.Х. Определитель деревьев и кустарников горных районов Узбекистана. – Ташкент: ТашГУ, 1990. – 88 с.

## "ECOLOGY OF SCENIC PLANTS "TOPIC THE IMPORTANCE OF TEACHING

*Rakhimova Malokhat Anvarovna*

*Ishankulova Dilafruz Ulugbekovna*

*Teacher of Jizzakh state pedagogical university.*

[maloxat817@gmail.com](mailto:maloxat817@gmail.com)

**Annotation.** In this article, conclusions and recommendations on researching the use of pedagogical technologies in teaching the topic "Ecology of scenic plants" , forming the development of an electronic educational module on the subject, and improving teaching have been developed.

**Key words .** Heliophytes synophytes hygrophytes xerophyte mesophytes

German scientist E. Haeckel defined the science of ecology. Ecology is a combination of the Greek words *oikos* , which means *house, residence* , and *logos* , which means *study, science* .

Ecology studies the interactions between organisms and their environment. Ecology - provides information about the disruption of connections in nature under the influence of abiotic, biotic and anthropogenic factors. Ecology consists of several disciplines, in which biological sciences are the main ones. Because humans, animals and plants are biological objects that are constantly in contact with each other and the external environment.

Information about the relationship and distribution of plant life with the external environment has been known since ancient times. That is, Theophrastus, who lived in 372-277 AD, and Pliny the Elder, who lived in 23-79 AD, studied the relationship between plants and the environment. Theophrastus determined that the shape and growth of plants depend on climate and soil conditions. He also described the life forms of plants from an ecological point of view.

Abu Ali ibn Sina, who lived in the Middle Ages, studied the morphology, origin of names, composition and geography of medicinal plants and left information about them.

We find ecological data in the works of Mahmud Kashkari, who lived in Eastern Turkestan in the 11th century. His books contain ecological, morphological and geographical information about 200 plants.

We can find botanical and geographical information about the plants of Central Asia in the works of Z. Babur.

In the 19th century, the German naturalist A. Humboldt studied the distribution of plants depending on temperature and gave a classification of their life forms.

In 1895, Warming's book "The spread of plants under the influence of the external environment" was published.

In the 20th century, with the improvement of ecological methods, new ecological factors - day length, the reaction of the soil solution, and the influence of trace elements - began to be studied.

As a result of the increasing influence of anthropogenic factors on nature, the issues studied by ecology are increasing.

VV Dukachev studied the connection of living organisms with the external environment in different geographical zones.

The founder and organizer of ecological observations in Uzbekistan is E.P. Korovin. In the 1930s, he studied the plant community and the environment together.

A part of nature that surrounds organisms and is in constant contact with them is the environment.

The living environment consists of a set of factors necessary for life, without which organisms cannot live. Organisms live in a complex and changing world, and they gradually adapt their lives to it. During evolutionary development, organisms have mastered four main living environments. The first of them is the water environment. Life originated and spread in water. Later, living organisms occupied the atmosphere. Soil is a special living environment. The specific fourth environment of life is the body of a living organism.

Each external environment-ecological factors affecting the life of plants and their distribution on Earth are divided into 3 groups:

1. Abiotic factors:
2. Interactions of biotic factors-organisms.
3. Anthropogenic factors are the effects of human activity.

The external environment usually affects plants in three ways, minimal, optimal, maximal. Each external influence, acting at an optimal level, ensures the normal life of plants.

Depending on their light requirements, 3 main groups of plants differ. These are light-loving plants (heliophytes), shade-loving or shade-growing plants (synophytes) and light-tolerant plants. Light-loving plants grow normally in light conditions affected by the power of sunlight, and are shade-tolerant. Shade-loving or shade-growing plants are optimal in areas with little light, they do not like strong levels of light. This group of plants includes plant species that are distributed in strongly shaded areas. Many indoor and greenhouse plants grown here are shade-loving plants. *Light-loving* plants:

tilogoch, togterak, birch are light-loving trees. *Shade-loving* plants grow well in the open.

50-90 percent of the plant body is water.

Depending on the water needs of plants, they are divided into hydrophytes, hygrophytes, mesophytes and xerophytes. *Hydrophytes* are plants that grow in water. Examples of hydrophytes are white nymphia and water lily (*Zupha luteum*). Plants belonging to *hygrophytes* prefer moist soils and are very resistant to drought. *Xerophytic* plants grow in dry and humid lands. For example, anabasis bush, yulgun, saxovul, sugarcane, etc. are xerophytic plants. Plants belonging to *mesophytes* grow in moderately moist soils. Mesophytes include red oak, common purple, common sorghum, green sorghum, manchurian walnut, Siberian sycamore, alder, spruce, etc.

A.P. Shennikov includes species adapted to warm and cold climatic conditions of northern latitudes and high mountain zones to psychrophytes, and species adapted to dry and cold climatic conditions of high mountains to cryophytes.

Air is one of the necessary factors for plant life. Plants have oxygen with breath takes, and carbon dioxide gas is organic matter synthesis for is spent. Carbon dioxide in the air is released from the air gases harm occurs. For example, industry in the centers Tosk O' Mir is used as a result sulfur gas k o' p separate What is it? It is to plants much harmful effect is enough Of the pineapples European spruce, common pine; Among deciduous trees, spruce, oak, beech and birch are especially resistant to the effects of this gas. Thorny spruce, hemlock, camellia, poplar, purple, elm, maple and yellow acacia are partially tolerant.

Wind can have different effects on plants. The winged fruit and hairy seeds of many plants, such as maple, willow, and gorse, are dispersed by wind.

Soil plays an important role in the life of plants. Soil can be fertile or infertile. Megatrophic plants that grow on fertile soil include sharp-leaf maple, spruce, field maple, larch, larch, white and brittle willows, hemlock, walnut, and others.

The effects of plants on plants vary widely. Their direct and indirect effects are different.

The interaction between animals and plants occurs through the food chain. The direct effect of animals is manifested in pollination and spreading of fruits and seeds, fertilization of the land with manure.

The role of people in the life of plants is huge. Usually, people affect plants for a purpose (for their own benefit), but it is not always beneficial.

It can be concluded that plants are affected by external factors at the same time, but their responses are different. That is the importance of studying them.

In accordance with the national program of personnel training of the Republic of Uzbekistan, it is envisaged to provide educational institutions with specially trained

pedagogical personnel, to create an environment based on competition in their work process, to provide the educational process with quality educational literature and advanced pedagogical technologies.

Implementation of these tasks is the direct duty of each educational institution. Successful implementation of pedagogical technologies in the educational process requires that each subject teacher has special knowledge and skills, as well as methodological training necessary for pedagogical practice.

Education does not accept the influence of all active and slow changes, but it has its influence on what is happening in society. From this point of view, changes in education are not only a result, but a condition for the future development of society.

Currently, the wide application of pedagogical innovations in the educational process is a global trend of world development. Special attention is being paid to the systematic introduction of innovations into the field of education at the same time when the scope of pedagogical innovations is increasing and the modernization process is developing rapidly in the country. But despite the fact that many pedagogical innovations are being created, the level of introduction of pedagogical research on the implementation of new content, forms, methods and tools of teaching in educational processes cannot be considered sufficient.

The following innovations and educational technologies are used in the education of ornamental plants of Uzbekistan today in developed foreign countries.

Technology of educational activities	Int e rfaol M e tods	Graphic Organization e r
1. Lectures and educational technology . 2. C e minar training educational technology . 3. Practical training educational technology . 4. Independent educational technology. 5. Case - stadium educational technology . 6. Project educational technology	1. Brainstorming. 2. Free writing. 3. Reasoned essay. 4. FSMU. 5. Blitz -s package. 6. Blitz is a game. 7. Training manual. 8. Written and oral roundtable discussion. 9. Definition of concepts. 10. Compose a text based on concepts. 11. A sequence of confused logical chains	1. Clast e r. 2. B-B-B drawing 3. T- drawing. 4. Venn diagram. 5. Conceptual table. 6. Insert table. 7. "Why" diagram 8. "How?" diagram 9. Fish skeleton. 10. Classification table. 11. Lily flower

Effective teaching technologies:

- \* problem teaching;
- \* technologies that develop critical thinking;
- \* developing educational technologies;
- \* game technologies;
- \* collaborative technologies;
- \* differentiated and individual technology of teaching;
- \* computer-information technologies.

It is known that the application of innovations and advanced foreign experiences in the process of teaching "Biology" in the higher educational institutions of our country is one of the urgent issues of today.

First of all in science news what What is innovation in science ? said to questions answer to give it is necessary Today's in the day in practice news and innovation words between differences there is News this in science the most last achievements , knowledge , methods is counted.

#### LIST OF REFERENCES :

1. Pechenits yn V.P., i dr. Culture is better . - Tashkent . : " Shar q" , 2005 .
2. Nabiev M.M., Kazakbaev R.Yu. Opredelitel dekorativnyx derevov i Kustarnikov to Uzbekistan. - T. : " SCIENCE " , 1975 .
3. "Red Book" of the Republic of Uzbekistan. -Tashkent: "Chinor ENK", 2009.
5. Kravchenko L.K. Landscape herbaceous plants. - Tashkent, 1971.
6. Kravchenko L.K. Tsvetochno-decorative plants. - Tashkent.: "Uzbekistan", 1973.
7. Khamidov A. Geography of plants. - Tashkent.: "Teacher", 1984.
8. Pratov O', Jumaev K. Systematics of higher plants. - Tashkent, 2003.

## BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASHDA MUHOFAZA HUDUDLARINING O'RNI

A.A. *Xolmirzayeva*

Jizzax davlat pedagogika universiteti

"Zoologiya va anatomiya" kafedrasi o'qituvchisi

[1995.aziza.xolmirzayeva@gmail.com](mailto:1995.aziza.xolmirzayeva@gmail.com)

*Ibodullaeva Marjona Komiljon qizi*

JDPU Biologiya va uni o'qitish metodikasi yo'nalishi talabasi

[Marjonu77@mail.com](mailto:Marjonu77@mail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologik xilma-xillikni asrash borasida mamlakatimizda qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonasi, biosfera rezervati, milliy tabiat bog'lari, pitomnik, tabiat yodgorliklari tashkil etilgan bo'lib, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning yo'q bo'lib ketish xavfi ostida qolganlarini saqlab qolish hamda ko'paytirishdek davrimiz uchun o'ta dolzarb muammolarni hal etishda muhim o'rin tutishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Qo'riqxona, Milliy bog', biosfera rezervati, buyurtmaxona, pitomnik, hayvonot dunyosi, muhofaza hududlari.

Biologik xilma-xillik – tabiatning asosiy boyligi bo'lib, turli ekotizimlar, turlar va genetik resurslarning xilma-xilligini ifodalaydi. Bu xilma-xillik nafaqat tabiatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, balki insoniyatning yashash sharoitini yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi. Ammo zamonaviy ekologik muammolar, jumladan, iqlim o'zgarishi, inson faoliyati va tabiat resurslarining haddan tashqari ekspluatatsiyasi tufayli biologik xilma-xillik tobora xavf ostida qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishda muhofaza hududlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Biologik xilma-xillikni saqlashda muhofaza hududlaring o'rnini alohida aytib o'tmasak bo'lmaydi, bu muhim mavzuni o'rganish katta ahamiyatga ega. Muhofaza hududi, biror bir yerda tabiiy, ekologik yoki moliyaviy qadriyatlar bo'yicha himoya qilingan joy yoki territoriya hisoblanadi. Bu hududlar turli xil mavzular uchun belgilanishi mumkin, masalan, tabiiy boyliklar, ekosistemalar, turar joylar, ekologik muhitlar yoki moliyaviy manbalarni saqlash uchun belgilanishi mumkin. Ular tabiiy resurslarni saqlash, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, turar joylar va hayvonot muhitini saqlash, atrof-muhitni sifatli darajada saqlash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi.

## Muhofaza hududlari tushunchasi va vazifalari

Muhofaza hududlari bu ekotizimlarni, turlarni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish uchun maxsus ajratilgan geografik hududlardir. Ular quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Turlarni saqlash: Muhofaza hududlari noyob va yo‘qolib borayotgan turlarning tabiiy yashash muhitini himoya qilish uchun xizmat qiladi.
2. Ekotizimlarni barqarorlashtirish: Muhofaza qilinadigan hududlarda tabiatning tabiiy muvozanati saqlanib, ekologik xizmatlar (masalan, suvni tozalash, havo sifatini yaxshilash) davom ettiriladi.
3. Genetik resurslarni himoya qilish: Genetik xilma-xillik nafaqat turlarning omon qolishi uchun, balki insoniyat uchun kelajakda foydalanish mumkin bo‘lgan resurs sifatida muhim ahamiyatga ega.
4. Ilmiy tadqiqotlar va ekologik ta’lim: Muhofaza hududlari biologik xilma-xillikni o‘rganish va ekologik ta’limni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Muhofaza hududlari boshqarilishi va belgilanishi uchun odatda qonun qoidalar, nazorat va ko‘rsatmalar belgilanadi. Ular qonunlar, to‘lovlar, yoki boshqa targ‘ibotlar orqali himoya qilinadi. Muhofaza hududlari ekologiya va jamiyatga yaxshi turarjoylar, boyliklar va tabiiy muhitlarni ta’minalash uchun muhimdir.

Muhofaza hududlari biologik xilma-xillikning saqlashi, qutqarishi va o‘sishi uchun katta ahamiyatga ega. Bunday hududlarni doimiy nazoratga olish kerak shuningdek, ularning faoliyatini nazorat qilish zarur. Muhofaza hududlarining kengaytirilishi, barqarorligi va barqarorligi uchun harakat qilish uchun doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlar va jamoatning ishtirokini ta’minalash juda muhimdir. Muhofaza hududlari biologik xilma-xillikni saqlashda mustahkam qo’llab-quvvatni ta’minalash uchun juda muhimdir. Ular ustida doimiy nazorat, moliyaviy imkoniyatlarni ta’minalash, ekologik bog‘lovchilar va jamoat faoliyatlarini olib borish zarur. Bu bilan birga, yangi ilmiy tadqiqotlar va ommaviy bilim yechimlari yaratish uchun muhofaza hududlari muhim muhit hisoblanadi. O‘zbekiston hududida ham muhofazaga olingan hududlar ancha sonlarni tashkil etadi. Bunday hududlar Respublikaning barcha hududlarida tashkil etilgan desak adashmagan bo‘lamiz albatta. Mamlakatimizda tashkil etilayotgan har bir muhofaza qilinadigan hududlarning asosiy maqsadi ham aynan ma’lum arealda mavjud bo‘lgan har bir o’simlik va hayvon turiga nisbatan takrorlanmas tur sifatida qarash, genetik jihatdan sofligini ta’minalash hamda har qanday biologik jamoada o‘ziga xos o‘rniga va barqarorligiga egaligini ta’minalashdan iboratdir. Respublikamizda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning quyidagi asosiy guruhlari mavjud.

### O'zbekiston hududida tashkil etilgan qo'riqxonalar jadvali

Qo'riqxona nomlari, tashkil etilgan sanasi	Rasmiy o'rni	Geografik o'rni	Maydoni	Tashkil etilganlik hujjatlar sanasi
1.Zomin (1928-1960)	Jizzax viloyati, zomin tumani	Pomir-loy, turkiston xr.	26,840	N -446 20.06.1959
2.Chotqol (1947)	Toshkent viloyati,	Tyan-shan, chotqol	35,724	N -2020 26.12.1947
3. Baday-to'qay(1971)	Qoraqalpog'iston espublikasi, Beruniy rayoni	Amudaryo	6,462	N -304 N -559 02.11.1970 28.04.1971
4. Qizilqum (1971)	Xorazm viloyati, romintan tumani	Amudaryo	10,311	N -368 24.03.1971
5. Zarafshon (1975)	Samarqand viloyati, Jomboy tumani	Zarafshon	2,352	N -264 11.05.1975
6. Kitob (1979)	Qashqadaryo viloyati, kitob tumani	Pomir-loy, zarafshon	3,938	N -206 22.03.1979
7. Nurota (1975)	Jizzax viloyati, Forish tumani	Pomir-loy, nurota	17,752	N -503 04.12.1973
8. Gissar (1983)	Qashqadaryo viloyati, yakkaobod tumani	Pomir-loy, gissar	80,986	N -521 09.09.1983
9.Surxan (1987)	Surxandaryo viloyati	Pomir-loy	24,554	N -445, N-271 08.09.1986 07.06.1985
Umumiyl maydoni			208,176	
<b>Tabiiy bog'lар</b>				
1. Zomin milliy bog'i (1976)	Jizzax viloyati, zomin tumani	Pomir-loy, Turkiston	24,110	N -523 08.09.1976
2. Ugam-chotqol (1990)	Toshkent viloyati, parkent, oxongaron tumani	Tyan -shan	574,590	N -270 30.07.1990
Umumiyl maydoni			598,700	

Davlat qo'riqxonalari bugungi kunda «Alohibda muhofaza qilinadigan hududlar» kesimida asosiy o'rinni egallab, ularning umumiyl maydoni 2284 kv.km.ni tashki etadi.

Qo‘riqxonalarda ayrim hayvon zotlari va o‘simlik turlari o‘rganiladi hamda himoya qilinadi. Qo‘riqxonalarda insonlarning xo‘jalik ta’sirlari ta’qilanganadi. Respublikamiz hududida jami bo‘lib 10 ta qo‘riqxonalar mavjud bo‘lib, bular: Zomin, Chotqol, Surxon, Qizil-Qum, Baday-To‘qay, Zarafshon, Nurota, Oqtog‘-Tomdi, Kitob, Hisor kabi davlat qo‘riqxonalaridan iborat. Alovida muhofaza qilinadigan hududlarga milliy bog‘lar ham kiritilib, muhofaza qilinadigan hududning 30% ni, ya’ni 6061 kv.km. maydonni egallaydi. Milliy bog‘larning asosiy maqsadi tabiat turlaridan oqilona foydalanish hamda tabiiy

bioxilma-xillikni saqlash hamda ularni muhofaza qilishdan iboratdir. Shuningdek, muhofaza qilinadigan hududlar turkumiga davlat buyurtmaxonalari ham kiradi. Bu muhofaza hududlarining har birida biologik xilma-xillikning muhofazasi va ekologik barqarorligi uchun harakat qilinadi. Ular ustida doimiy nazorat olib boriladi va jamoat faoliyatlarini muhofaza qilish uchun ilg‘or qo‘llaniladi. Xulosa sifatida, ekologik ta’lim bu ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan ekologik savodli faoliyatda qo‘llaniladigan, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalar, xulq-atvor va maxsus bilimlar shakllanishiga qaratilgan uzlusiz bilim olish, o‘z ustida ishlash, tajriba orttirish va shaxs bo‘lib shakllanish jarayoni ekanligini qayd etish lozim. Barqaror rivojlanish manfaatlari yo‘lidagi ta’lim butun hayot davrida, ya’ni bolalikdan oliv ta’lim olishga, yoshlar va kattalar uchun ta’limda davom etadigan jarayon bo‘lib, u formal ta’lim doirasidan ham tashqariga chiqadi. Muhofaza hududlari biologik xilma-xillikni saqlashning samarali vositasidir. Ular nafaqat ekologik tizimlarni barqarorlashtirish, balki kelajak avlodlarga boy biologik merosni qoldirish imkonini beradi. Tabiatni himoya qilishga qaratilgan choratadbirlarni kengaytirish va aholining ekologik mas’uliyatini oshirish orqali biz Yer yuzidagi hayotni saqlab qolish yo‘lida muhim qadam tashlay olamiz.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Azamat o‘g‘li, A. A. (2023). KANAKUNJUT O ‘SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHЛИI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 200- 202.
- 2.Azamat o‘g‘li, A. A. (2024). MEDICINAL PROPERTIES OF BITTER ALMOND SEEDS, METHODS OF PREPARATION OF MEDICINE. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(3), 148-154
- 3.Isomiddin o‘g‘li, T. M. (2024). QO ‘RIQXONANING TASHKIL ETILISHI VA FIZIKGEOGRAFIK TAVSIFI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 38(7), 148-156

4. Isomiddin o'g'li, T. M. (2024). QO 'RIQXONANING TASHKIL ETILISHI VA FIZIKGEOGRAFIK TAVSIFI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 38(7), 148-156

5. Mukhriddin, T. (2023). XENOBIOTICS AND THEIR TYPES. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(10), 14-17.

## ZOOLOGIYA DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Xolmirzayeva Aziza Abdilbase qizi

JDPU "Zoologiya va anatomiya" kafedrasi o'qituvchisi

[1995.aziza.xolmirzayeva@gmail.com](mailto:1995.aziza.xolmirzayeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada zoologiya darslarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Interfaol usullarning o'quvchilarning qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqilgan. "Aqliy hujum", "Klaster usuli", rolli o'yinlar, debatlar kabi samarali metodlar orqali dars jarayonini faollashtirish va o'quvchilarda ekologik ongni shakllantirish yo'llari muhokama qilingan. Shuningdek, interfaol metodlarning o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va ijodkorlikni rag'batlantirishdagi o'rni ta'kidlangan. Maqola ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishning dolzarbligini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Zoologiya, interfaol metodlar, aqliy hujum, klaster usuli, rolli o'yinlar, ekologik ong, o'quv jarayoni, ijodkorlik, ta'lim metodikasi, biologiya, o'quvchilar faolligi, innovatsion yondashuvlar.

**Kirish.** Zoologiya tabiiy fanlarning muhim sohasi bo'lib, tabiatni, hayvonlar dunyosini o'rganish va ularni muhofaza qilishni o'rgatadi. Ushbu fan o'quvchilarga nazariy bilimlar berish bilan birga, ularda tabiatga nisbatan mehr va mas'uliyat hissini shakllantiradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish zoologiya fanining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning fan bilan faol shug'ullanishini ta'minlash uchun muhimdir.

**Interfaol metodlarning mohiyati.** Interfaol metodlar o'quv jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro faol muloqotni ta'minlaydi. Bu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar o'quv jarayonini faollashtiradi, bu esa o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

**Zoologiya darslarida interfaol metodlarning qo'llanilishi.** Zoologiya darslarini interfaol usullar yordamida o'qitish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

**1. Amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish:** Hayvonot dunyosini o'rganishda o'quvchilarni tajribalar va kuzatuvlarga jalb qilish orqali bilimlarni amaliyot bilan bog'lash.

**2.Ijodiy yondashuvni shakllantirish:** Tabiatni muhofaza qilishga doir loyiha va muammolarni hal qilish jarayonida o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undash.

**3.Kuzatuvchanlik va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish:** Interfaol metodlar yordamida hayvonlarning yashash muhitini o‘rganish va ularning ekologik ahamiyatini tahlil qilish.

### Eng samarali interfaol metodlar

Zoologiya darslarida quyidagi interfaol metodlardan foydalanish yaxshi natijalar beradi:

**1.“Aqliy hujum” (Brainstorming)** O‘quvchilarga hayvonlar yashash muhitlari, ekologik muammolar yoki hayvonlarning muhofazasiga oid savollar beriladi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildirish orqali muhokamada ishtirok etadi. Bu usul orqali o‘quvchilar masalalarini turli nuqtai nazardan tahlil qilishni o‘rganadi.

**2. “Klaster usuli”** Dars mavzusi bo‘yicha asosiy g‘oyalarni grafik shaklda guruhlash. Masalan, “Sutemizuvchilar” mavzusida hayvonlarning yashash joylari, oziqlanishi va ekologik ahamiyatini klaster shaklida tasvirlash.

**3. “Rolli o‘yinlar”** Hayvonlar dunyosiga oid turli vaziyatlarni modellashtirish. Masalan, o‘quvchilar hayvonlar va ekologlar roilda ishtirok etib, tabiatni muhofaza qilish masalalarini hal qilishda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

**4. “Qizg‘in muloqot” (Debatlar)** Ekologik masalalar bo‘yicha bahs-munozaralar tashkil qilish. Masalan, “Hayvonlarni qo‘riqxonalarda saqlash yaxshimi yoki ularni tabiatda erkin qoldirish kerakmi?” kabi mavzularda o‘quvchilar o‘z fikrlarini dalillar asosida bayon qilishadi.

**5. Tajriba va kuzatuw** O‘quvchilarni hayvonot dunyosini o‘rganish uchun tabiat qo‘yniga yoki zoologik bog‘larga olib chiqish. Bu usul nazariy bilimlarni real kuzatuvlar bilan mustahkamlaydi.

### Interfaol metodlarning afzalliklari:

**Qiziqishni oshiradi:** O‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi va mavzuga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

**Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi:** O‘quvchilar ilmiy masalalarini mustaqil tahlil qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

**Ijodkorlikni rag‘batlantiradi:** O‘quvchilarni yangicha yondashuv va kreativlikka undaydi.

**Hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi:** Guruh bo‘lib ishlash va o‘zaro muloqot qilishni o‘rgatadi.

Xulosa. Zoologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularda amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi va ekologik mas’uliyatni tarbiyalaydi. O‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvni tatbiq etish orqali fanlarni yanada samarali va qiziqarli o‘rgatish

mumkin. Interfaol metodlardan foydalangan holda, o‘quvchilarni ilmiy izlanishga jalg qilish va ularda ekologik ongni shakllantirish zoologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha 2023–2030 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi". Toshkent, 2023.
3. Sharipov, A.A., "Interfaol ta’lim metodlari: Nazariya va amaliyot". Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020.
3. Rixsiev, S.R., "Zoologiya: O‘rta maktab o‘quv qo‘llanmasi". Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti, 2019.
4. Interfaol metodlarni ta’limda qo‘llash bo‘yicha qo‘llanma".

## O'ZBEKISTONDA ENTOMOLOGIYA SOHASINING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI

A.A. Xolmirzayeva

Jizzax davlat pedagogika universiteti "Zoologiya va anatomiya"

kafedrasи o'qituvchisi

1995.aziza.xolmirzayeva@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda entomologiya sohasining rivojlanishi, amaliy ahamiyati va istiqbollari yoritib berilgan. Mamlakatdagi hasharotlar dunyosining boy biologik xilma-xilligi, qishloq xo'jaligi, tibbiyat va ekoliya sohalarida entomologiyaning roli ko'rib chiqilgan. Hasharotlarning o'simliklarni changlatish, tuproq unumdarligini oshirish va biologik muvozanatni ta'minlashdagi ahamiyati ta'kidlangan. Shuningdek, dala zararkunandalari va hasharotlar orqali yuqadigan kasalliklarga qarshi kurashishning ekologik xavfsiz usullari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Entomologiya, O'zbekiston, hasharotlar, biologik xilma-xillik, qishloq xo'jaligi, ekoliya, dala zararkunandalari, changlatuvchilar, tibbiyat, ekologik muhofaza, zamonaviy texnologiyalar, biologik kurash, xalqaro hamkorlik.

**Kirish.** Entomologiya – hasharotlarni o'rjanuvchi fan bo'lib, bioliya va ekoliya sohasining muhim tarmog' idir. Hasharotlar tabiatdagi biologik xilma-xillikning eng katta qismini tashkil etadi va ular ko'plab ekotizimlarning muhim qismi hisoblanadi. O'zbekistonning turli iqlim zonalari, cho'l va tog'lardan tortib subtropik hududlargacha, hasharotlarning boy xilma-xilligini ta'minlaydi. Bu esa entomologiyaning mintaqaviy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

### Entomologiya tarixiga nazar

O'zbekistonda entomologiya sohasining rivojlanishi 20-asr boshlariga borib taqaladi. Bu davrda Markaziy Osiyoning hayvonot dunyosini o'rjanish bo'yicha dastlabki ilmiy ekspeditsiyalar o'tkazilgan.

O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) va boshqa ilmiy markazlarda entomologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlangan. Bu davrda dala zararkunandalariga qarshi kurashish, foydali hasharotlarni (masalan, asalari va ipak qurti) tadqiq qilish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekiston hasharotlar dunyosini o'rjanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida bir qancha milliy dasturlarni qabul qildi. Bu borada ilmiy tadqiqotlar kengaytirildi va zamonaviy usullar joriy etildi.

## O‘zbekiston hasharotlarining xilma-xilligi

O‘zbekistonning geografik joylashuvi va iqlim sharoiti hasharotlarning boy xilma-xilligini shakllantirdi:

**Cho‘l hududlarida** chigirtka va qurt-qumursqalar keng tarqalgan bo‘lib, ular ekotizimda muhim rol o‘ynaydi.

**Tog‘li hududlarda** noyob va endemik hasharot turlarini uchratish mumkin.

**Qishloq xo‘jaligi hududlarida** dala zararkunandalari va foydali hasharotlar (masalan, changlatuvchilar) ahamiyatlidir.

## Entomologiyaning amaliy ahamiyati

### 1. Qishloq xo‘jaligida

Dala ekinlariga zarar yetkazuvchi hasharotlarni aniqlash va ularga qarshi ekologik xavfsiz usullarni ishlab chiqish. Foydali hasharotlardan, jumladan, changlatuvchilardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish. Biologik kurash vositalarini (predator va parazit hasharotlar) qo‘llash.

### 2. Tibbiyotda

Hasharotlar orqali yuqadigan kasalliklarni (masalan, bezgakni tarqatuvchi chivinlarni) o‘rganish va ularga qarshi kurashish. Hasharotlardan dori vositalari yaratishda foydalanish.

### 3. Ekologiya va muhofazada

Hasharotlar ekologik muvozanatni ta’minlaydi va tuproq unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Noyob va endemik turlarni muhofaza qilish orqali biologik xilma-xillikni saqlash.

Entomologiyaning rivojlanish istiqbollari

O‘zbekistonda entomologiya sohasining kelajagi quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi mumkin:

### 1. Ilmiy tadqiqotlar kengaytirilishi

Hasharotlarning genetik xilma-xilligini o‘rganish va ularni identifikatsiya qilish. Klimat o‘zgarishi fonida hasharotlarning populyatsiyasi va turlar tarkibidagi o‘zgarishlarni kuzatish.

2.

### Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish

Dronlar yordamida hasharotlarni kuzatish va monitoring qilish. Hasharotlarning xatti-harakatlarini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish.

3.

### Qishloq xo‘jaligida yangi yondashuvlar

Biologik kurash vositalarini kengaytirish va pestitsidlardan foydalanishni cheklash. Changlatuvchi hasharotlar populyatsiyasini sun’iy ravishda oshirish.

4. Kadrlar

### tayyorlash va xalqaro hamkorlik

Entomologlar tayyorlash uchun maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

Hasharotlarni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish. **Xulosa.**

O'zbekistonda entomologiya sohasining rivojlanishi nafaqat ilmiy jihatdan, balki ekologik va iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Hasharotlarning biologik xilma-xilligini saqlash, ularni tadqiq qilish va amaliyatga tatbiq etish orqali O'zbekiston ekologik barqarorlikka erishishi mumkin. Bu sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yosh mutaxassislarni tayyorlash entomologiyaning istiqbollari uchun muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamov, A.T., "O'zbekiston hasharotlarining biologik xilma-xilligi". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.

2. Karimov, S.R., "Hasharotlarning ekologik ahamiyati". Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2021.

3. Komilov, R.A., "Dala zararkunandalariga qarshi biologik kurash usullari". Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, a2020.

4. Rahimov, O.A., "Entomologiyaning zamonaviy yondashuvlari". Nukus: Qoraqalpoq Davlat Universiteti nashriyoti, 2019.

5. Chikhsayev, A.T., "O'zbekistonda foydali hasharotlarni o'rganish tajribasi". Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti, 2022.

## MIRZO ULUG'BEKNING ILMIY-MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI TARIXI

*Esanov Samariddin*

*Ahrorova Madina Rahmatovna*

**Anotatsiya:** Maqolada Mirzo Ulug'bekning ilmiy va ma'rifatparvarlik faoliyati tarixi batafsil tahlil qilinadi. Ulug'bek, Amir Temurning nevarasi bo'lib, o'z davrining eng yirik olimlaridan biri sifatida tanilgan. U Samarcandda «Ulug'bek rasadxonasi»ni tashkil etib, astronomiya va matematika sohasida yirik tadqiqotlarni olib borgan. Maqolada Ulug'bekning astronomik asari Zij va uning ilm-fan tarixidagi ahamiyati haqida to'liq ma'lumot beriladi. Shuningdek, uning ilmiy faoliyatining zamonaviy ilmfanga, ayniqsa, astronomiya, geografiya va matematika sohalariga qo'shgan hissasi ko'rsatiladi. Ulug'bekning ilmiy va madaniy markazlarni yaratishdagi ma'rifatparvarlik yondashuvi, Samarcandni ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, Ulug'bekning ilmiy metodologiyasining o'rta asrlardagi ilm-fan rivojiga qo'shgan ulkan hissa va uning madaniyatga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi. Maqola, Ulug'bekning ilm-fan va madaniyat sohasidagi merosini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning ilmiy ishlari va ma'rifatparvarlik faoliyati bugungi kunda ham yuksak baholanadi.

